

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
MUSIQA KAFEDRASI**

*“Himoyaga tavsiya etilsin”
Pedagogika-psixologiya fakulteti
dekani _____ dots.T.Rasulov
“ _____ ” _____ 2011 yil*

**5141000- “Musiqiy ta‘lim” yo‘nalishi bakalavr darajasini
olish uchun yozilgan**

SHAROPOVA HILOLANING

“DAMLI MUSIQA CHOLG‘ULARI IJROCHILIGI ”mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Ilmiy rahbar: _____ prof. Abdikarimov.M.
“ _____ ” _____ 2011 yil**

**“Himoya tavsiya etilsin”
Musiqqa kafedra mudiri
_____ k/o‘q .R. Primov
“ _____ ” _____ 2011 yil**

QARSHI–2011

MUNDARIJA

KIRISH.....3-8

I–BOB MUSIQA CHOLG‘ULARINING TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARI

I.1. Sharq xalqlarida mavjud damli musiqa cholg‘ulari9-23

I.2. O‘rta Osiyo xalqlari musiqa cholg‘ulari.....24-38

II–BOB O‘ZBEKISTONDA MAVJUD DAMLI MUSIQA CHOLG‘ULARI

II.1.Nay musiqa cholg‘ulari.....39-48

II.2.Qo‘shnay musiqa cholg‘ulari.....49-56

II.3.Surnay va karnay musiqa cholg‘ulari.....57-62

II.4. Milliy musiqa cholg‘ulari ijrochiligi63-73

Xulosa.....74-76

Foydalanilgan adabiyotlar.....77

Nota yozuvi va fotosuratlar.....78-89

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisidagi ma‘ruzasida “Xalq so‘zi” gazetasining 2010 yil 13 noyabr № 220 (5135) shanba sonida berilgan bo‘lib Prezidentimiz o‘z so‘zlarini 2010 yilni yakunlab Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligi nishonlanadigan yangi 2011 yil ostonasida turganligimiz haqida so‘z yuritib, o‘tgan davr mobaynida hayotimiz, mamlakatimiz qiyofasi o‘zgarib borayotgani, yutuq va natijalar, bozor iqtisodiyotiga asoslangan ochiq demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish yo‘lida qanday sur‘atlar bilan borayotganligimizni baholash lozimligi haqida to‘xtalib o‘tdilar.

Oldimizda turgan uzoq muddatli strategik maqsadlar rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga kirish, iqtisodiyotimizning barqaror o‘rnatilishini ta‘minlash, jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash borasidagi sa‘yi-harakatimizga bugungi nuqtai-nazardan baho berish.

O‘zbekiston 1991 yilda o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng “O‘zbek modeli” deb nom olgan taraqqiyot yo‘lini tanlab oldi. Odamlarning o‘rtacha umr ko‘rishi 67 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarni esa 75 yoshgacha umr ko‘rayotgani haqida so‘z yuritiladi.

Toshkentda 12 noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisi bo‘lib o‘tdi. Majlisda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida ma‘ruza qildi.

Majlislar zalida Vazirlar Mahkamasi a‘zolari, Respublika tashkilotlari, xalqaro tashkilot rahbarlari, mamlakatimiz va xorijiy ommaviy axborot vositalari muxbirlari ishtirok etishdi.

Majlisni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri D.Toshmuhammedova boshqardi.

Davlatimiz rahbari o‘z ma‘ruzasida davlat ahamiyatiga molik muhim vazifalarni hal etishda davlat hokimiyati tarmoqlarini, xususan, parlamentni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, siyosiy partiyalarning rolini oshirish, mamlakatimiz sud-huquq tizimini, saylov qonunchiligini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini, ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish, shuningdek, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga qaratilgan bir qator qonunchilik tashabbuslariga doir masalalarga alohida e‘tibor qaratildi.

“Bugun biz tarixiy bir davrda – xalqimiz o‘z oldiga ezgu va ulug‘ maqsadlar qo‘yib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalambor, o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish yo‘lida ulkan natijalarni qo‘lga kiritayotgan bir zamonda yashamoqdamiz”. (Islom Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. T.: “Ma’naviyat”, 2008 yil.)

“Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Jumladan, qisqa vaqt ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, aholi daromadlarining o‘shirishini ta’minlash, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlarini kuchaytirish, qishloq xo‘jaligini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini barqaror rivojlantirish, bank-moliya tizimi faoliyatini mustahkamlashda ahamiyatli yutuqlar qo‘lga kiritildi” (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” nomli asari bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. “Iqtisodiyot” nashriyoti, 2009 yil, 5-b)

“Jahon miqyosida kechayotgan globallashuv jarayoni XX asrning oxiri XXI asr boshlarida butun insoniyat yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratilmoqda” (Islom Karimov. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. T.: 2009 y. 3-b.)

Bizning bitiruv malakaviy ishimizning mavzusi “Damli musiqa cholg‘ulari ijrochiligi” bo‘lib, yuksak ma’naviy milliy musiqa ijrochiligining ijro etilishida asosiy o‘rinda musiqa cholg‘uchilari ijrochilari turadi. Chunki, biz musiqiy asarlar ijrolarini, ularning musiqiy sadolanishlarini musiqa cholg‘ulari ijrolari jarayonida yangragan musiqiy sadolar orqali tasavvur etamiz.

O‘zbekistonda 30 dan ortiq musiqa cholg‘ulari bo‘lib, ular ko‘rinishi, tuzilishi, sozlanishi, ijro uslublariga asosan, turli xil guruhlariga bo‘linib, ulardan biri “damli musiqa cholg‘ulari” bo‘lib, bizning bitiruv malakaviy ishimiz ushbu musiqa cholg‘ularining yaratilish tarixi, ijro yo‘llari, o‘zbek musiqa ijrochiligida tutgan o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, shunga ko‘ra ta’lim jarayonida damli musiqa cholg‘ulari ijrochiligining amaliy va nazariy masalalariga tegishli masalalarni berishga harakat qildik.

Yosh avlodni har tomonlama barkamol, komil inson bo‘lib yetishishi da, shakllanishida musiqa ijrochiligining bir turi hisoblangan “Damli musiqa cholg‘ulari” ijrochiligini o‘rganish, u orqali yoshlarda milliy g‘urur his-tuyg‘ularini shakllantirish “Musiqiy pedagogika” fanining dolzarb vazifalaridan biridir. Shuning uchun biz ilmiy xulosalarga asoslangan holda musiqa

madaniyati darslarida “Damli musiqa cholg‘ulari” ijrochiligini o‘rganish mavzusini dolzarb mavzu sifatida tadqiq etishga jazm qildik.

Shu bilan birga musiqa madaniyatimizning ming yillar bilan sarhisob etuvchi tarixi xilma-xil va boy manbalarda yoritilgan. Albatta, musiqa cholg‘ulari ijrochiligi ham ma’lum bir davrda shakllangan bo‘lib, o‘ziga xos nomlanishlar, uslub va ijro yo‘llari, musiqiy ustalarni mazkur cholg‘ularni tayyorlash jarayonlari, cholg‘uchilar uchun kuy bastalovchi bastakorlar, musiqa cholg‘ularini tarixiy taraqqiyot jarayoni o‘zlarining musiqiy risolalarida yoritib beruvchi musiqashunoslar, musiqa cholg‘ulari ijrochilari, yetuk sozandalar, musiqa cholg‘ulari jo‘rligida qo‘shiq ijro etuvchi hofiz xonandalarning hamkorlikdagi ijodiy izlanishlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Maktabda musiqiy a’lim darslarida “Damli musiqa cholg‘ulari” haqidagi ma’lumotlar, ularning shakllanish jarayoni hamda cholg‘ularni og‘zaki an’ana ijro uslubidagi ijrolari, umuman cholg‘u ijrochiligiga tegishli ma’lumotlari dars jarayonida o‘quvchilarga yetkazib, musiqiy ijrolardan eshittirish va ijrolarini o‘rganishga harakat qilish asosiy maqsad hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi

Yosh avlodni milliy musiqamizning asosiy qismi hisoblangan musiqa cholg‘ulari, jumladan, “Damli musiqa cholg‘ulari” ijrolariga havas uyg‘otish, ushbu milliy merosimizga vorislik qila oladigan, shu asosda umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutgan holda maktabdagi musiqiy ta’lim darslarida cholg‘u sozlari ijrochiligini o‘quvchilarga o‘rgatishni maslahat berish va darsdan tashqari musiqiy to‘garaklarni tashkil qilish ijobiy natijalar beradi.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari

Davlat Ta’lim Standarti va yangi o‘quv dasturi asosida o‘qituvchi avvalo “Damli musiqa cholg‘ulari ijrochiligi” haqidagi tushunchalarga ega bo‘lishi kerak. Cholg‘u sozlari ijrochilaridan namunalar tanlay bilish, musiqa asarlari tanlash jarayonida o‘quvchilarning qobiliyati, yoshlik xususiyatlariga qarab musiqiy ijro asarlaridan tanlashi lozim bo‘ladi.

O‘zbekiston hududida ajoyib sado beruvchi musiqa cholg‘ulari bo‘lib, bu cholg‘ular bir-biridan musiqiy sadolanishi bilan farq qiladi. Ayniqsa damli musiqa cholg‘ulari guruhiga kiruvchi – nay, qo‘shnay, surnay, karnay, bulamon, sibziq kabi musiqa asarlari yakka ijro, ansambl, orkestr jo‘rligidagi ijrolarini xilma-xilligi, cholg‘ushunoslik sohasidagi o‘rni va vazifalari, musiqiy ta’lim jarayonida, konsert dasturlarida, O‘zbekiston, O‘rta Osiyo,

Umumjahon musiqiy anjumanlaridagi ijrolari musiqa ilmining amaliy va nazariy qoidalari asosida tahlil qilinadi.

Damli musiqa cholg'ularini og'zaki an'ana uslubidagi ijrolari hamda zamonaviy nota yozuvlari asosidagi ijrolarini yoritib borish asosiy vazifa hisoblanadi.

1. Damli musiqa cholg'ularni yaratilishi va nomlanishi.
2. Damli musiqa cholg'ularida ijro etiladigan musiqiy asarlar.
3. Damli musiqa cholg'ularini o'zbek cholg'ushunosligidagi o'rni.
4. Damli musiqa cholg'ularining eng yetuk sozandalari, ularning ijro yo'llarini o'rganish va targ'ib qilish.

Damli musiqa cholg'ulari barcha Sharq xalqlarida uchraydi. Lekin, O'zbekistonda ham turli nomlar bilan ataluvchi damli musiqa cholg'ulari bo'lib, bu musiqa cholg'ularining ijrolari, boshlang'ich, o'rta va oliy musiqa dargohlarida qisman umumta'lim maktablaridagi musiqa madaniyati darslarida tanishtirib boriladi va targ'ib qilinadi. Shu bois bu turdagi musiqa cholg'ulari ijrosiga xos asarlar tanlanib ta'lim jarayonida bosqichma*bosqich o'rgatilib boriladi. Xuddi shuningdek, musiqa cholg'ulari haqidagi ma'lumotlar, ular ijrosidagi musiqiy asarlar, ularning yetuk ijrochilari haqidagi ma'lumotlar ham rejalashtirilib, mashg'ulotlar olib boriladi.

Tadqiqotlarning ilmiy farazi tajriba sinov o'tkazish jarayonida tekshirilib o'quvchilarning damli musiqa cholg'ularining ijrochiligi haqidagi ijodiy va kuylash qobiliyatini oshirishda notaga qarab kuylash, turli ritmik harakatlarni bajarish va dars jarayonining barcha faoliyatlarida o'quvchilarning faolligini oshirish mazmuniga kerakli tafsilotlar kiritildi va samarali shakillantirishning qulay yo'llari aniqlanib berildi.

Tadqiqotimizning **amaliy ahamiyati** izlanishlarimiz davomida maktablarda

Damli cholg'u asboblarning ijro etishga doir ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligi bilan belgilanadi.

Bitiruv malakaviy ishning metodlari

1. Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi, hamda damli musiqa cholg'ulariga oid adabiyotlarni tahlil etish.
2. Kuzatish.
3. Suhbat va ma'lumotlar to'plash.
4. Damli musiqa cholg'ulari ijrolaridagi musiqiy ijro asarlar tahlili.

5. Tajribalarni tahlil etish va umumlashtirish

Bitiruv malakaviy ishni o'rganish manbalari

Ma'lumki, hozirgi kunda O'zbekistonda ikki xil ijro yo'li, ya'ni: Yevropa ijro uslubiga xos musiqiy asarlar va Milliy musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlar ijro etiladi. Shu bois mazkur, ya'ni damli musiqa cholg'ulari ijrolari uchun maxsus bastalangan musiqiy asarlar, o'quv qo'llanma va darsliklar hamda yetuk ustoz sozandalar tomonidan ijro etilgan musiqiy asarlar, magnit tasmalarida yozilgan musiqiy asarlar asosiy manba hisoblanadi.

I-BOB

MUSIQA CHOLG'ULARINING TARIXIY TARAQQIYOT JARAYONLARI

I.1. Sharq xalqlarida mavjud damli musiqa cholg'ulari

Maktabdagi musiqa madaniyati darslarida turli xil musiqiy ijrolar, qo'shiqlar ijrolari bilan bir qatorda, milliy musiqa cholg'ulari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish, imkoniyat darajasida ba'zi cholg'ular ijrolarini o'rganish, xususan damli musiqa cholg'ular ijrochiligi haqidagi fikr-mulohazalar asosiy maqsad hisoblanadi.

Musiqa cholg'ularining tarixi, yaratilish, tarixiy taraqqiyot jarayonlari, ijrolarini o'rganish qoidalari, musiqa savodi, ularda ijro etiladigan asarlar, yetuk ijrochi sozandalar, musiqiy darslar mashhulotlarini asosini tashkil etadi.

Musiqiy ijrolarni o'rganishda maktabdagi musiqiy mashg'ulotlarda quyidagi asosiy masalalarga e'tibor berilishi lozim bo'ladi.

1. Musiqiy mashg'ulotlar darslarida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish.
2. Yevropa va Sharq xalqlarida mavjud damli musiqa cholg'ulari.
3. O'zbekiston hududidagi damli musiqa cholg'ulari.

Musiqa ilmining tarixi juda qadim-qadimlargacha borib taqaladi. Lekin bizning eramizdan avvalgi musiqiy ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Faqat keyingi yillarda olimlarning qidiruvlari natijasida yer ostidan va joylardan topilgan uy ro'zg'or buyumlaridagi musiqa cholg'ularining va ijrochilarning tasvirlari aks ettirilgan suratlar va boshqa ma'lumotlarga tayanib, musiqa ilmining juda qadim tarixga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Masalan: "Avesto" asari 3000 yillik tarixga ega bo'lgan nodir asar hisoblanadi. Albatta o'sha

davrlarda ham madaniyat, san'at xususan musiqa ijrochiligi ham bo'lgan. Tarixchi Mas'udiyning "Muruj az-zahab" (Oltin vodi) kitobida qayd etilishicha Aleksandir Makidonskiy Istahar shahrini bosib olib, olimlarga "Avesto" dagi tibbiyot, falsafa va ilmi nujumga doir o'rinlarni tarjima qildirib, qolgan qismini yoqib yuborishni buyurgan. Mas'udiyning ma'lumotiga ko'ra "Avesto" matni 12 ming oltin taxtaga yozilgan. (Tilab Mahmudov. Avesto haqida. Toshkent. 2000.6.s.).

Musiqa ilmi qachon paydo bo'lgan? degan savolga jo'ngina qilib, odamzod yaratilgan lahzada deb javob berish mumkin. Rivoyatlarda aytilishicha Alloh Taolo Hazrati Odamni yaratib, uning vujudiga jonni kiritish jarayonida musiqa sadolari arzu samoni to'ldirib turgan ekan. Musiqa haqida gap ketganda "Jonbaxsh" sifatining qo'llanilishi ham shundan bo'lsa ajab emas". (Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995. 3. s.).

Lekin musiqa ilmining qachon paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Musiqa ilmi go'yo bir ilohiy kuch bo'lib, uning paydo bolishi haqida turli xil rivoyatlar mavjud. "Zuhro yulduzi xonanda-sozandalarning xomiysi hisoblangan. Cho'lpon yulduzi yoki Venera sayyorasi". (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV. Toshkent 1985. 316.s.).

Bizning eramizda yashab ijod etgan ko'pgina allomalar fanning turli sohalarida ijod etish bilan birga musiqa ilmiga ham alohida e'tibor berganlar. Masalan: Arestotel, Pifagor, Forobiy, Ibn Sino, Urmaviy, Marog'iy, Xorazmshoh, Jomiy, Navoiy, Kavkabiy, Husayniy, Darvesh Ali Changiy, Komil Xorazmiy va boshqalar. IX asrlardan boshlab "Musiqa" ilmiga va uning ijrochiligiga oid musiqiy asarlar paydo bo'la boshladi. Forobiyning "Kitobu-l-musiqiy al-kabir" (Musiqa o'ld katta kitob), X-XI asrlarda Abu Ali Ibn Sinoning "Kitobu-sh-shifo", "Donishnoma" kitoblaridagi maxsus boblar, Abdulqodir Marog'iyning "Maqosid-ul-alhon" ("Kuylar maqsadlari"), Urmaviyning "Risolutush-sharafiya", Qutbuddin Sheroziyning "Durratut-toj" musiqiy risolalari, Abdurahmon Jomiyning "Risolayi musiqiy" ("Musiqa ilmi risolasi"), Kavkabiyning "Risolayi musiqiy" asari ya'ni "Risola dar bayoni duvozdah maqom" ("O'n ikki maqom bayoniga bag'ishlangan risola"), Husayniyning "Qonuni-ilmi va amaliy musiqiy" ("Musiqa ilmining amaliy va nazariy qonunlari"), Darvesh Ali Changiyning "Tuhfatus-surur" ("Shodlik tuhfasi") asarlari shular jumlasidandir. Komil Xorazmiyning "Tanbur nota chizig'i"da esa maqomlar nota yozuvi berilgan. Yozilgan ilmiy asarlarda har bir mutafakkir olim o'zi yashab ijod etgan davridagi musiqiy hayotga doir musiqa ilmini amaliy va nazariy sohalariga tegishli musiqa cholg'ulari va ularning ixtirochilari, sozanda, xonanda, bastakor, musiqashunoslar to'g'risidagi ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

Qadimiy shahar va o'lkalarning nomlari ko'pgina yozilgan asarlarda zikir etilgan. Masalan: O'rta Osiyo hududidagi Movarounnahr, Turon, Turkiston, Toshkent (Shosh), Samarqand (Marokand yoki Samarkend), Termiz, Buxoro, Farg'ona, Xorazm, Qarshi (Nasaf, Naxshab), Shahrisabz (Kesh), Ajam, Hisor, Marv va hokazo shaharlararo "Buyuk Ipak yo'li" vositasida iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borilgan. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV Toshkent. 1985 yil. Bu asarda ba'zi bir shaharlar va o'lkalar to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: **Movarounnahr** - o'rta asrlarda Amudaryoning o'ng tomonidagi yerlar to Sirdaryogacha, Farg'onadan Xorazmgacha bo'lgan joylar shunday nomlangan. **Marv** - Xurosonning obod va mashhur shahari hozirgi Mari shahri. **Xuroson** - sharqdan Movarounnahr, g'arbdan Ko'histon bilan tutashgan, Hirot, Marv, Balx, Nishopur kabi katta shaharlari mavjud. **Xorazm** - Movarounnahrda mashhur voha. **Shahrisabz** - Movarounnahrda go'zal va qadimiy shahar: Dedilar: Kishvari durur dilkash. Oti ham Shahrisabz erur ham Kash. **Shero** - Eronda shahar nomi. Xuroson demakim, Sherozu Tabruz, ki qilmishdur nayi kilkim shakarrez. **Naxshab** - Movarounnahrda shahar nomi. "Nasaf" nomi bilan yuritilgan. Hozirgi Qarshi shahri. Mahi Naxshab-Qarshi go'zali. Bo'lur shom ul mahi Naxshab ravona. Kamandi zulfin ochib shab ravona. **Samarqand** - Movarounnahrda ma'muriy va madaniy markaz bo'lgan qadimiy shahar. Qadimiy So'g'd davlatining poytaxti Marokand.

Toshkand-Toshkent qadimiy Shosh shahrini keyinchalik shunday atashgan.**Buxoro**-Movarounnahrda adabiyot, madaniyat va san'at rivojlangan qadimiy shahar. **Ajam**-qadimda Eronni shunday atashgan. Arablar Arabistondan tashqaridagi yerlarni ham Ajam deb atashgan.**Astarobod**-(Astirabod) Kasbiyning janubiy-sharqida joylashgan Eron shaharlaridan biri, qadimda "Jurjon" nomi bilan mashhur bo'lgan. Ko'ngil mulkin istar obod, vah buzar xayli firoq. To Navoiy azmi mulki Astirobod ayladi.

Yuqoridagi nomlari zikr etilgan shaharlarda ilmu-fanning barcha sohalarida ijod qilgan yetuk allomalar: she'riyat, adabiyot, san'at, musiqa dunyosining ijodkorlari yashab faoliyat ko'rsatishgan. Musiqa sohasidagi mutaxassislar ham xon saroyida yashab ijod etishgan. Masalan:VI asrda O'rta Osiyolik hofiz-sozanda, bastakor, musiqashunos Borbad Marvaziy Eron shohi Xusrav Parviz saroyida yashab ijod etgan. Sharqda u Borbad musiqa cholg'usining ixtirochisi. Sharq musiqa madaniyati rivojining asoschisi sifatida tan olinadi. U yaratgan Barbad musiqa cholg'usi va u bastalagan "Xusravoniy" nomli musiqiy asarlari X-XII asrlarda Xuroson va Turon musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan.

Sharq musiqa cholg'ulari umuman ko'pgina dunyo musiqa cholg'ularining asosini tashkil etib, dastlab milliy musiqa cholg'ularini deyarli juda ko'p nusxalari Sharq olimlari,

allomalari tomonidan ixtiro etilib kelingan. Keyin boshqa davlatlarga tarqalib, ular ko‘rinish va tuzilishi jihatidan bir xil, faqat joylashgan muhiti, nomlanishi, shakli, tuzilishlari, ijro etiladigan asarlari bilan bir-biridan farq qiladi. Masalan: barcha Sharq xalqlarida, nay, doyra, surnay, ud, tanbur, dutor, chang va boshqa musiqa cholg‘ulari uchraydi. Ya’ni – doyra, nag‘ora, chirmanda, dumbelek yoki daf, nay (fleyta) cholg‘usi, misnay, yog‘och nay, g‘arav nay hamda qo‘shnay, zurna, surnay, karnay. Ud cholg‘usi – lyutniya, tanbur cholg‘usi- tanbur, tenbur, tambur va hokazo nomlar bilan nomlanib, Sharq xalqlari musiqa ijrochiligida qo‘llaniladi.



Hindiston, Pokiston, Afg‘onistonda bir-biriga o‘xshash: vina, sorod, setor, tambur, tanbur, tabl, zurna, kamoncha, santur, soz, qonun kabi musiqa cholg‘ulari, Xitoy, Yaponiya, Mangoliyada bir-biriga o‘xshash hamda Xitoyning Uyg‘ur xalqlari yashaydigan Qoshqar mahalgohida, O‘rta Osiyoning O‘zbekiston, Tojikiston davlatlaridagi ud, tanbur, dutor, nay, surnay, qo‘shnay, doyra, rubob, nag‘ora, g‘ijjak, dumbra, changqobiz, bulamon va boshqa nom bilan ataluvchi musiqa cholg‘ulari uchraydi.

Hindiston va **Pokistonda** – sitor, surbahar, tambur, tungtungi, ektar, kemancha, sarangi, kanun. **Afgonistonda**– tanbur, rabob, sarinda, dilrabo, kemanche. **Kambodjada**– akhong, shong, chapey, sralay, sa-din, trokher. **Laosda** - taphon, khen, thake, romania, khong-vong, rangnat. **Indoneziyada** – sralay, gambuz, ninut. **Afrikada** – klangu, valiha, totambito, bagana. **Arabistonda** – darbako, zamr, zurna, ud, kanun, rubob, santur, naqqariya, bendur, durbek. **Turkiyada** - surna, nafir, lira, kemanche, horon, rabob, ud, tanbur, kanun, djud-juk, tulum, def yoki dumbelek. **Eron** va **Kavkaz** xalqlarida -tor, soz, ud, qonun, santur, chang, tanbur, zurna, tabl, def va boshqa musiqa cholg‘ulari ijrochilikda keng qo‘llanilmoqda.






267
















Yuqorida Sharq xalqlarida mavjud damli musiqa cholg'ularidan: qo'sh sado, surno, tulup, karnay, miskarnay, qamishnay, shox, nayi anbon, duduk, nay va surnay, suyaknay musiqa cholg'ulari tasvirlangan.

I.2. O'RTA OSIYO MUSIQA CHOLG'ULARI

X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa san'ati jumladan cholg'u ijrochiligi ancha rivojlanib, o'sha davrlarda juda ko'p musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilgan. Bu borada musiqashunos Darvesh Ali Changiy o'zining musiqiy risolasida – chang, ud, nay, doyra musiqa cholg'ulari ayniqsa 5 va 6 qo'sh torli “Ud” musiqa cholg'usi haqida ma'lumot berib, bu musiqa cholg'usining o'sha davrdagi mavqeini va musiqa ijrochiligidagi o'rmini yuqori baholab, “Ud” barcha musiqa cholg'ularining podshohidir va “Rud” musiqa cholg'usi ham kamon vositasida ijro etilganligi haqida ma'lumot beradi. (A.A. Семёнов. Средне-азиатский трактат по музыке. Дарвеш Али. Ташкент.1946.стр. 18).

Ma'lumki IX-X asrlarda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Ro'dakiy o'z zamonasida “Rud” va “Chang” musiqa cholg'ularining mohir ijrochisi bo'lgan. O'sha davrda yashagan Mahmud Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asari yaratilib, bu asarda bir qancha mehnat qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, umuman juda ko'p turli xil qo'shiqlar o'z aksini topgan. X asrning buyuk allomasi musiqashunos olim Abu Nasr Forobiy (873-950) musiqa ilmiga katta e'tibor berib, musiqa cholg'ularining ijrolari, musiqa nazariyasi, “Sharq nota tizimi”ni yaratish va ularni o'sha davrdagi musiqa ijrochiligiga qo'llanish masalalari, matematika fanini mukammal o'rganish bilan birga, matematika fanining bir turi hisoblangan musiqa ilmini o'rganish va uni targ'ib etishga o'zining buyuk hissasini qo'shgan. Uning “Kitobu-l-musiqiy al kabir (“Musiqqa ilmiga oid katta kitob”) asarida turlicha musiqa usullari (zarblari), musiqa cholg'ularidan ud, tanbur, nay, chang va turlicha musiqiy ovozlari haqida ma'lumot berilgan. (M.M. Xayrullayev. Forobiy. Toshkent. 1963. 176 s.) X asr ashula san'atiga doir ma'lumotlar Yusuf Xos Xojibning “Qutadg'u bilig” asarida ham o'z aksini topgan.

O'zbek adabiyotshunos olimi N. Mallayev qadimiy qo'lyozmalardagi ma'lumotlarga tayanib X-XII asrlarda O'rta Osiyoda musiqa cholg'ularidan – tanbur, rubob, kus(qo'sh) nag'ora, qubuz, tabl, zurna, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unun, qonun kabi hamda zarbli va puflama musiqa cholg'ulari musiqa ijrochiligida keng qo'llanilganligi haqida, shuning bilan birga shu davrda “Rost”, “Xusravoniy”, ”Boda”, “Ushshoq”, “Zurafkand”, “Bo'slik”, “Sipaxon”, “Navo”, “Basta”, “Taronas” va juda ko'p musiqiy asarlar ijro etilganligi haqida ma'lumot bergan. (N.M. Mallayev. O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent 1965. 94 s).

Tibbiyot dunyosining allomasi Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Ba'zi musiqiy risolalarda zikr etilishicha Abu Ali Ibn Sino go'yo Sulton Mahmud G'aznaviy, Nosir Xusravlar bilan birgalikda “G'ijjak” musiqa cholg'usini ixtiro

qilganligi haqida ma'lumot berilgan (Askarali Rajabov. "Nag'mai Niyogon". Dushanbe. Adib. 1998. 194 s.) X asrda yashagan Muhammad Ibn Muso al Xorazmiy ham musiqa ilmiga katta e'tibor bergan. Shunday qilib XII asrlarga kelib Foroboy va Ibn Sinolarning musiqa nazariyasi asosida Xorazmlik olim Ar-Roziy hamda Ash Sheroziy, Urmaviy, Amuliy va boshqa olimlar ham musiqa ilmi bilan shug'ullanganlar.

O'rta Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p istilochilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Axmoniyalar, Sosoniylar, makidoniyalik Iskandar (334), Chin hoqonlari (IV asr), Arab xalifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul istelochilari (XII asr. 1219) va boshqalar. Bu davrlarda Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Buxoro, Farg'ona vodiysining ko'p joylari xarobaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p yodgorliklarda adabiyot, san'at va madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko'p musiqa cholg'ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan suratlarning nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur Zamonida Turkiston mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari 1399 yil, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko'p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san'at rivojlandi. Ayniqsa Samarqandda ilmuhunar sohiblari, olimlar, me'morlar, naqqoshlar, rassomlar, aktyorlar, musiqashunoslar, xonanda va sozandalar to'plandilar. Musiqa ilmining namoyondalari Abdulqodir Marog'iy sozanda va bastakorlardan Sayfiddin Qutbi Noyi, Said Yusuf qubuz, Darvesh Bek va boshqalar yashab ijod etdilar (M. Rahmonov. O'zbek teatri. Toshkent 1975 yil. 217 s.).

XIV-XVI asrlarda asosan madaniyat va san'at sohasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ulug'bek davrida ayniqsa Movarounnahr madaniyati ancha yuksaldi. Ulug'bek Samarqand va Hirotda mashhur buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilar, san'atkorlar doirasida xususan o'sha davrda Sharqda mashhur Muhammad Xorazmiy, Qozizoda Rumi, G'iyosiddin bin Mab'udiy, Ali Qushchi va boshqalar bilan birga ijod qildi. Abdurauf Fitrat Ulug'bek zamonasida Samarqandda yashab ijod etgan musiqa ilmining namoyondalari haqida ma'lumotlar beradi. Samarqandlik Darvesh Ahmad Qonuniy, Sulton Ahmad Noiy musiqa risolasining muallifi Qorako'llik Hisoriy, Xorazmlik Abu Vafo, musiqashunos Sohib Balxiy, Shahrisabzlik bastakor Abdul Baraka, Navoiyning muallimi mashhur sozanda Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad G'aribiylar va hokazolar. Mashhur musiqashunos Hofiz Darvesh Ali Changiy

o‘zining “Tuhfat us-surur”(“Shodlik tuhfası”) asarida Ulug‘bek ham musiqa ilmiga katta e‘tibor bergan deydi. (A.Fitrat. O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Samarqand- Toshkent. 1927 yil 58 s.).

Ulug‘bek vafotidan keyin (1449) shu davrda Xuroson, Sharqiy va Shimoliy Eron hududida Temuriylarning oxirgi yirik davlati hukmronlik qilib, uning poytaxti Hirot shahri hisoblanib, bu shaharda o‘z davrida adabiyot, san‘at, madaniyat, musiqa sohalarini rivojiga katta e‘tibor bergan o‘zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiy (1441-1501) yashab ijod etar edi. Bu davrda Navoiy bilan birgalikda Xorazmiy, Xo‘jandiy, Abdurahmon Jomiy, Sayfiy Saroiy, Ahmadiy, Bobur, Muhammad Solih Majruiy kabi shoirlar, tasviriy san‘atning ulug‘ namoyondasi Behzod, Mirak Naqqosh va xonandalardan - Hofiz Basir, Hofiz Mir, Hofiz Hasan Ali, Hofiz Jomiy, Hofiz Turbatiy, sozandalardan- Hasan Noyi, Qulmuhammad Udiy, Hasan Bolaboniy, Ali Xonaqoiy Muhammadiy, Ahmad G‘ijjakiy, Ali Ko‘chak Tanburiy va boshqalar Hirot shahrida yashab ijod etganlar. Ayniqsa Alisher Navoiy musiqa dunyosining namoyondalariga o‘zi xomiylik qilgan. O‘sha davrda ko‘pgina uydan nag‘ora, nay, g‘ijjak, ud, tanbur va boshqa ko‘pgina musiqa cholg‘ularining sadolari eshitilib turar ekan. Vosifiy esa Husayin Bayqaro saroyida ham tez-tez bo‘lib turadigan bazm, mushoiralarda, tantana va tomoshalarda turli musiqa ijrochilari qatnashganligi haqida ma‘lumot beradi. (A.N. Bol’direv. Zayniddin Vosifiy. 1957. 41. s.).

Umuman Alisher Navoiy Hirotida adabiyot, san‘at va madaniyatni yuqori darajaga ko‘tarilishiga o‘z hissasini qo‘shdi. Ayniqsa musiqa madaniyatining rivojida yangi kuylar, qo‘shiqalar, musiqiy risolalar yozildi va bastakorlar, hofizlar yetishib chiqdi. Navoiyning iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy “Risolaiy musiqiy” asarini yozdi. Zaynylobiddin al Husayniy “Qonuni ilmi va amaliy musiqiy” (“Musiqia ilmining amaliy va nazariy qonunlari.”) nomli musiqa risolasini yozib, uni Navoiyga bag‘ishladi. Abdulqodir Marog‘iyning “Maqosid ul alhon” risolasi yozildi. Unda 40 ga yaqin qadimiy musiqa cholg‘ulari haqida ma‘lumot berilgan.

Bu yerda cholg‘u asboblarining XIV—XV asrlarda iste‘molda bo‘lgan 40 dan ortiq turi keltiriladi. Ular 4 turkumga ajratiladi: 1. Inson halqumi. 2. Puflab chalinadigan asboblar. 3. Torli asboblar. 4, Urilib- chalinadigan asboblar — nog‘ora, chinni idish as-boblar, toslar, alvoh (tosh, metall asboblar).

Bu yerda biz mamnuniyat bilan shuni aytishni xoh-lardikki, muhtaram ustozimiz professor Otanazar Matsqubov risolada cholg‘u asboblarining XIV—XV asrlarda iste‘molda bo‘lgan 40 dan ortiq turi keltirilganligi va ular haqidagi kuzatishlarini bizga tuhfa etdilar. Unda

keltirilishicha, zikr ztilgan chol-g'ular, to'rt turkumga ajratiladi: 1.Inson halqumi. 2.Puflab chalinadigan asboblar, 3.Torli asboblar. 4.Urib chalinadigai asboblar – nog'ora, chinpi idish asboblar, toslar, alvoh (tosh, metall asboblar).

Sozlar tasnifi.

Udi qadim — to'rt qo'shaloq torli, hammasi bo'lib sakkiz tori bor.

Udi komil (to'liq ud)—besh par torli (udning bu turi Forobiy tomonidan qayta tuzilgan) bo'lib, undan XIII—XV asrda yashagan olimlar o'z risolalarida foydalanganlar. Lekin Forobiyda mujannab pardasi bir nechta bo'lgan.

Zarb-ul-futh (fath qilish usuli) – olti torli bo'lib, beshtasi ud kabi sozlangan, bittasi esa ijro etiladigan kuyning sadolanish xususiyatiga qarab har xil sozlanib sado berib turadi.

Shashtoy (Shashtor)—uch xil bo'ladi: 1). Amrud (nok shaklidagi), kosasi udniki singari, uch qo'shaloq torli. Qo'shaloq torlar bir xil sozlanadi. Dastasiga pardalar bog'lanadi. Parda bog'lanmasa, to'liqroq sado beradi. 2). Kosasi va korni sathi udnikidek bo'lsa-da, dastasi uzunroqdir. Torlari shashtoyning birinchi turidagi kabi, 3).Sozning sathidan yuqori-tomondan kal- ta torlar ikkitadan qilib taqiladi (sato, sitor kabi). Uni sozanda xohlaganicha mikdorda taqishi mumkin. Ayniqsa, Rumda keng qo'llanilgan. Mezrob bilan chalinib, kalta torlar tirnoqlar bilan tirnab kuy ohangiga sado berib turiladi. (Bu Ozarbayjonda hozirda oshiqalar chaladigan «soz» asbobini eslatadi. Uning ham bir qator o'rtacha va kichik turlari mavjud).

5. Taraf rud – shakli va tarzi shashtoy kabi bo'lib, qorin tomoniga kalta torlar albatta taqilgan bo'ladi.

6. Tanburi shirvoniy –Tabriz axlida ko'proq qo'llanilgan. Dastasida pardalar boglanadi. U ham amrudlar toifasidan, ammo satxi ko'tarilgan bo'lib, turlicha sozlanadi. U ikki torli bo'lib, agar katta sekundaga sozlansa, baland tor sabboba pardasini pastroqqa surib, past tovushli torga hamohang sozlansa, cholg'uchilar Sarpardai dugoh deb ataydilar. Agar Segohga sozlamoqchi bo'lsa, sabobai mujannabni (180 sent) baland sozlangan torning.binsiri zalzal pardasiga mos sozlab,'Segox hosil qilinadi. Chorgohni hosil qilishda vustai furs pardasidagi tor pasaytirilib, xinsir torini baland ko'taradilar. U turli maqom va sho'balarga har xil sozlanadi.

7. Tanburi turkiy – kosasi va sathi Shirvon tan- buridan kichik, dastasi esa uzunrok bo'ladi. Torlari kvartaga sozlanadi: Ba'zilar unga ikki qo'shaloq tor taqadilar va kuylariga qarab turlicha sozlaydilar.

8. Ruhafzoyi – kosasi limon shaklidagi olti torli asbobdir. Uning to‘rt tori ipak tor bo‘lib, qo‘shaloq taqiladi. Qolgan ikki tori (ichak tor bo‘lsa kerak) ham-qo‘shaloq, tanburi turkiy kabi sozlanadi.

9. Qo‘puzi Rumi – kosasi yog‘ochdan o‘yilib, ustiga teri qoplangan udning kichik shakliga o‘xshash 5 torli bo‘lib, ud kabi (kvartaga) sozlanadi.

Avzon – kosasi boshka sozlarnikidan cho‘ziqroq, to‘rtidan uch qismiga kosa tomondan teri qoplangan. Uch tori bo‘lib, kvartaga sozlangan.

Noyi tanbur – kamonli asbob, Shirvon tanburiga o‘xshash, barmoqlar bilaya tovush xosni etiladi (bizdagi Satoni eslatadi).

Rubob – ba‘zan uch torli, to‘rt-besh torgacha bo‘lib, qo‘shaloq taqilib, ud kabi kvartaga sozlangan.

13. Rudi xoniy – to‘rt torli asbob bo‘lib, sathining yarmi qoplangan, dastasiga pardalar bog‘langan. Udi qadim kabi sozlangan

14. Yaktor – sathi to‘rt burchakli, yakka torli asbob bo‘lib, g‘isht qolipi shaklidir. Dastasi kalta - bir karichcha keladi. Uning ikki tomoniga teri qoplangan. Bir necha ot dumi qilidan tor yasalgan.

15. Tarantoy – olti burchakli shaklidagi yakka tor-li asbob, dastasi uzundur.

16. Tuxfatul-ud—udning kichik turi, normal udning yarmicha keladi. Ba‘zan unga o‘n ikki tor bog‘lab, katta udning sado kuchini hosil qilganlar.

17. Shudurgu—kosasi, sathi va dastasi uzun to‘rt torli asbob. Qosasining yarim yuziga teri qoplangan. Katta tersiya (zi‘fi taniniy) ga sozlanadi. Xitoy (Qoshg‘ar)da keng qo‘llanilgan. Xitoy (Qorg‘ar)liklar unda tovushlarning barchasini hosil qilib, ularni «Kuqiy»—deb ataganlar. «Kuk»lar maxsus nomlar bilan atalgan, hammasi bo‘lib 360 kuk bo‘lgan. Ular Ulug kuk, Arsdon chap, Maxdum yurish, Bo‘zto‘rg‘ay, Qulodu, Chintay, Xantay, Shandaq, Qo‘tongu kabi nomlar bilan atalgan. Ularning Navo, Buslik, Ushshoqqa kiradigan Kuklari majmuasi ham ko‘p sonni tashkil etgan. Ba‘zilari ramal va boshqalari muxammas doirasida ijro etilgan.

18. Pipo – Xitoy cholg‘u asboblaridan. U yog‘ochni kazma qilib o‘yib, ustiga qopkoq yopishtirilgan. O‘zi to‘rt torli, xaraklari baland bo‘lib, kvartaga sozlangan.

Shahrud –uddan ikki barobar uzun uyasimon asbob. Uning A, Yh, Lh pardalari oktava darajasida sozlangan. Lekin, udga ko‘ra bir oktava baland sozlanadi, ya‘ni mazkur pardalar bir oktava baland sadolanadi. U o‘n torli bo‘lib, qo‘shaloq qilnb taqiladi. Uning diapazoni ikki oktavadir. U XV asrda iste‘moldan chiqib ketgan.

20Mug‘anniy – dastasiz uzunchoq taxtadan yasalgan asbob. Uning asosiy torlari 24 ta bo‘lib, har bir tori yonida ikki barobar kalta torlari bo‘lib, ularning (oktava darajadagi) baland-past torlari birga sadolanadi.

21.Chang– mashhur sozlardan bo‘lib, yuziga teri koplangan, torlari esa chilvirlar bilan tortib bog‘-lab qo‘yilgan. Bu esa, torlarni uzaytirish uchundir. Sozandalar ularni pardalar deb hisoblaydilar. Ba’-zan 24 tor bog‘langan, noxun (tirnoq) bilan chalingan.

Qonun – kosasi va tarzi uchburchak shaklida bo‘lib, dastasi bo‘lmagan. Tor uch qo‘shaloq qilib bog‘langan. Oktavani olti torga taqsimlab, doiralarga kerakli tovushlar hosil qilingan.

Kamoncha – kosasi java (xind) yong‘og‘i po‘chog‘idan yasaliib, ot dumi qilidan tor qilib chalingan. Ba’zida yog‘ochdan qozma qilib ham yasalgan va ipak tor takib chalingan. Kosasiga ho‘kiz teri qoplangan. Yog‘och kosali kamoncha yoqimli sado bsrigan. Kvartaga sozlanib, kamon bilan chalingani uchun shu nomni olgan,

G‘ijjak – kamonli sozlar turkumidan. Kosasiga tsri koplangan. U o‘n torli bo‘lgan. Uning torlari (xarak vositasi bilan past joylashgani uchun bir-biriga tegib ketib, xalaqit bermaydi). G‘ijjak yoqimli va mayin sado beradi.

Sozi dulob (dumaloq, charx)– qadimiy asbob. Duxullar toifasidan. Uning terisi orqa tomoni torlar bilan tortib qo‘yiladi. Ularni maxkam tortish bilan asbob soz qilinadi.

Egri – changning bir turi. Farqi shuki, egri asbobida chilvirlar vazifasini cho‘plar o‘taydi, yuziga esa teri emas, yog‘och qopqoq qoplanadi.

Yotug‘on – uzun yog‘ochdan yasalgan 17 torli asbob, dastasi va quloqlari bo‘lmaydi. Torlarni xaraklar bilan ko‘tarib, ular yordamida sozlangan: Har bir torga alohida xarak qo‘yiladi. Agar anaf tomonga surilsa, past tovush beradi, musht tomonga surilsa, baland tovush hosil bo‘ladi. Ung qo‘l barmoqlari bilan torlar xarakatga keltirilib, chap qo‘l bilan esa torlarda tyobranma harakat (tebratish) xosil qilinadn.

Bu soz Xitoy (Qoshg‘ar) ahllarida keng qo‘llaniladi. Bu soz Urta Osiyo va Xurosonda ham qo‘llanilgan. Sharafuddin Ali Shoxrux xuzuridagi sozandalardan biri Yotug‘on chalganini yozadi. Miniatyura rasmida ham aks ettirilgan.

Kungura – hindlarda mashhur bo‘lib, ikkita qovoq (idish)cha bir dastaning ikki uchiga mahkam o‘rnatilib chalinadigan. bir torli asbobdir. Uning pardalari bo‘lib, tor o‘ng qo‘l barmoqlari uchi ilan chalinadi, chap qo‘l bilan esa asbobni ushlab turiladi.

Nayi safid—puflab chalinadigan asbob. Uning ustida sakkizta tovush teshigga bor. Yana bir teshik as-bobning tag tomonida bo‘lib, naychi uni bosh barmog‘i bilan bekitib chaladi. Unda ikki oktavalik tovush qator pogonalarini hosil qilish mumkin. Normal nay uzunligi qismlanganda 7,5 musht keladi.

30. Zamri siyah nay — Nayi Safiddan kalta, uning yarmicha keladi. Uni sadosini bo‘lmasdan chalganlar, ya’ni sozanda burundan nafas olib, uzluksiz lunjini dam bilan to‘ldirib turadi, lunjdagi zaxira xavo tamom bo‘lguncha yana uni to‘ldiradi. Bu Nayi safiddan ko‘ra mukammalroqdir.

31. Surno – u mazkur naylardan kichikroq, o‘tkir ovozli, diapazoni esa duodetsimaga boradi. Undan balandroq tovushlar yoqimsiz bo‘ladi.. Tovushi uzoklargacha taraladi.

Noyi balabon – tovushqator hosil qilishda surnayga o‘xshash, ovozi esa mayin va hazinroqdir.

Burqu–misan yasalgan asbob. Surnodan uch barobar uzun bo‘lgan. Kvarta va kvinta oralig‘idagi uch xil'tovush (A Ya Ih) hosil qilingan.

Nafir (mis karnay, cho‘pon karnay, muguz karnay) – burg‘u toifasidan. Uning bo‘yin tomoni egilgan bo‘lsa, karranoy deyiladi.

Bok (hozirda buk, bug)—shibriy (nafir) uzunligida bo‘lib, ust tomonda teshiklari bor. Tilni uning orziga qo‘yib chaladilar.

- 36. Xiknay -(sanoch nay) — bir tomonida puflanadigan truba bo‘lib, sanochga havo to‘ldirib turiladi. Ikkinchi truba tovush teshiklari barmoq bilan bosib chalinadi (keyingi asrlarda shunga o‘xshash asbob shammoma nomi bilan mashhur bo‘lgan).

Musiqor – naylardan iborat asbob bo‘lib, uzun-kaltaligiga qarab, last-baland tovush hosil qilinadi. Ular uzunligiga qarab bir-biriga biriktirib, joylanadi. Agar baland tovushli naycha kerak bo‘lsa, uning ichiga bir qadar mum aylantir‘ib surkaladi va tovush balandlashadi (tovush bosqondan berilishi ehtimoli bor).

Jipchiq–musiqori xitoyi ham deyiladi. Har xil naylar bir-biriga ma’lum tartibda yopishtiriladi. Har naycha tagida misnay orqali xavo (dam) o‘tadigan teshiklar bo‘lib, naylarga dam beriladi.

Arg‘anun – Yevropada mashhur asbob. U bir-biriga biriktirilgan ikki qator naylardan iborat. Nay lar kalaydan yasaladi. Ularning uzun-qiskaligiga ka-rab, past-baland tovushlar hosil qilinadi. Naylar-ning tagida chap qo‘l tomonda dam (havo") bo‘lib, temirchining bosqonidan foydalaniladi. Unig dami naylar-ga o‘tib, tovush hosil bo‘ladi. Chap qo‘l bilan bosqonni bosib,

o'ng qo'l bilan chalinadi. Teshiklar ustida ay-lana pardalar bo'lib, ular bosilsa, dam yo'li ochilib, tovush hosil bo'ladi. Bu organning dastlabki sodda turi. Unnng ma'lum, turi hoznrda afg'onlarda chalinib, yerga yotqizilgan akkordionga o'xshaydi.

Xoja Abdulqodir kosalar, toslar, metallardan yasalgan asboblari (alvoh) haqida ham gapiradi. Kosalar cholru asbobi sifatida maxsus ishlangan chinni idishlar bo'lib, kattasidan past, kichigidan baland tovush xosil qilinadi va cho'plar bilan chalinadi. Pokistonda hozir xam avoniy degan chinni idishlardan yasalgan asboblari ishlatiladi.

Toslar – metallardan ishlangan idishlar, ular xam cho'plar bilan chalinadi, alvoh—bular qayroq tosh va po'latdan ishlangan maxsus urib chalinadigan asbob-lardir. Ular Urta Osiyo va Hindistonda mashhur bo'l-gan.

Xoja Abdulqodir nog'ora va uning turlari x.aqida maxsus to'xtalib o'tirmagan. Birinchidan', u juda mash-hur asbob bo'lsa, ikkinchidan, kosali yoki tosli asbob-lar turkumiga kiritilgan bo'lsa kerak.

Mazkur cholg'u asboblarining ko'pi boshqa Sharq xalqlari musiqasi bilan bog'liq bo'lsa-da, chetdan olib kelingan sozandalar tomonidan Temur va temuriylar saroylarida, ba'zi xalq shodiyonalarida Urta Osiyo va Xurosonda ham joriy etilgan. Temurnylar davrida yashab, turkiy tilda ijod etgan shoirlarning doston-larida, lirik she'riy asarlarida xorijiy xalqlar musikasida mashhur bo'lgan cholg'u asboblari tilga oli nadi. Ular turli majlislarda, bazmlarda, marosim yirinlarida chaliar edi. Bu ma'lumotlar mazkur chol-g'u asboblari Urta Osiyo va Xurosonda xam keng qo'lla-nilganligini yana bir bor tasdiqlaydi. Xoja Abdul-qodirning o'zi ham ancha soz ixtiro qilgan bo'lib, «Sozi murassa'i G'aybiy» deb nom olgan.

Shunday qilib, Xoja Abdulqodirning ko'pqirrali ijodiy merosi Temur va temuriylar zamonida xalqlar musiqa madaniyati juda ham yuksak bo'lganini ko'rsatadi. Binobarin, mazkur olim hayoti va faoliyati biilan tanishib, uni musiqa nazariyasi va amaliyotiga qo'sh-gan ijodiy hissasi naqadar ulkanligini ko'rsatuvchy yooqin dalil va hujjatlarga duch kelinadi. Shuni alo-xida qayd etish lozbmki, uning risolalarn zamrnasi-dagi kuchli talab va extiyojlarga javoban yuzaga ksldi. U yaratgan kuy va ashulalar uzoq yillar davomida xalq sevib tinglagan musiqa asarlari qatoridan o'rin oldi.

Navoiy o'zining “Majolisun-Nafois” asarida musiqa ilmi bilan ijod qilgan shoirlarni nomlarini tilga oladi. Abdulla Vafoiy Xorazmiy, Jomiyning jiyani movlono Muhammad hamda Xoja Abdullo musiqa sohasida ham ijod qilganligi, shu bilan birga Navoiy o'z zamonasining buyuk sozanda bastakori Xoja Yusuf Burxonni eslab, bu zot musiqa ilmi bo'yicha Navoiyning

ustozi ekanligi haqida ma'lumot beradi. (Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. Jild III. 1948y. 13-112 s.)

XIV va XV asrlarda ilm fan, madaniyat va san'at sohasida faqat Samarqand va Hirotida emas balki bu davrda Farg'ona, Toshkent, Buxoro, Kesh, Xiva kabi Movarounnahrning boshqa joylarida ham san'atning barcha sohalari kabi musiqa san'ati ham taraqqiy etdi. O'sha davrda Farg'ona hukmdori Umarshayx (Boburning otasi) o'z poytaxtiga ko'pgina madaniyat va san'at namoyondalarini to'plashga harakat qiladi. "Boburnoma" asarida Bobur osha davrdagi Andijon madaniyatining ravnaqi haqida gapirib, ushbu diyor musiqa namoyondalaridan Xo'ja Yusufni, Vosifiy esa Toshkentlik bastakor, sozanda shoh Husayn haqida ma'lumot beradi. (Boburnoma. Toshkent. 1958. 12.s.). Shunday qilib O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalqi XIV-XVI asarlarda ilm-fan, madaniyat, san'at, musiqa, naqqoshlik, xattotlik va boshqa sohada katta muvaffaqiyatlarga erishdi.

1849 yildan boshlab Shayboniyxon davri boshlandi. U temuriylar davrida Buxoroda tahsil olgan bo'lib, bobosi Abdulxayrxon an'anasini davom ettirib, Turkiy davlatlarni birlashtirish maqsadida temuriylar davlatiga hujum qildi. Ko'p o'tmay Movarounnahr, Xorazm, Xurosonni qo'lga kiritdi. Buxoro, Samarqand, Urganch, Hirot shaharlardagi qattiq janglar bois Temuriylar davlati o'rniga Shayboniylarning o'zbek davlati tuzildi. Shu davrda madaniyat va san'at sohasida ancha tushkunlik ro'y berib, ko'pgina ilm-fan sohiblari o'z vatanlarini tashlab xorijiy mamlakatlarga ketishga majbur bo'ldi. Jumladan Bobur Mirzo Hindistonga borib "Buyuk Mo'gul Davlati" nomi bilan qurgan davlati natijasida Movarounnahr va Xiroson madaniyati ham ularda rivojlanib, bir qancha san'atkor, xonanda va sozandalar ham Hindistonga ketib qolganligi haqida Darvesh Ali ma'lumot beradi.

XV asr musiqa ilmi namoyondalaridan biri Najmiddin Kavkabiy bo'lib, Darvesh Ali Changiyning hikoya qilishicha Kavkabiy Hirotida tahsil ko'rgan bo'lib, uni Ubaydulloxon tomonidan Hirotidan Buxoroga olib kelinganligi va Kavkabiy bu yerda o'zining musiqa maktabini yaratib, Xo'ja Muhammad, Rizo Samarqandiy, Xo'ja Hasan Nisoriy, Hasan Kavkabiy, Boqi Jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlab, o'zining musiqa sohasidagi buyuk musiqa risolasi "Risolaiy musiqiy" ya'niy "Risola dar bayoni duvozdah maqom" asarini yaratdi.

XVI asrga kelib, madaniyat, san'at jumladan musiqa san'ati ham tushkunlikka tushdi. Urushlar kuchayib ketdi. Natijada 1716 yilda Farg'onada O'zbeklar urug'idan hisoblangan Shohruxbiy Qo'qonni Buxorodan ajratib Qo'qon xonligini barpo etdi. Keyinchalik Turkiston XVII asrlardan boshlab Buxoro, Qo'qon, Xorazm xonligiga bo'linib ketdi. Ma'lumki O'rta Osiyo xalqlari juda ko'p tarixiy voqealarni boshidan kechirib, har bir davrda barcha fanlar

qatori musiqa ilmi ham goh rivojlanib, goh tushkunlikka uchrab musiqa cholgʻulari ijrosi, sozanda va xonandalar, musiqashunoslar turli xil holatda yashab ijod etishdi. Yuqoridagi Oʻrta Osiyo hududidagi mavjud musiqa cholgʻulari turli xil jarayonlarni boshidan kechirib, koʻpgina musiqa cholgʻulari, urushlar jarayonida boshqa davlatlardan keltirilib, baʼzan boshqa xorijiy davlatlarga olib ketilib turli xil holatlarda musiqa ijrochiligida qoʻllanilgan. Umuman Oʻrta Osiyo madaniyati butun Sharq madaniyati rivojiga katta hissa qoʻshdi. VII asrlardan boshlab Oʻrta Osiyo musiqa sanʼati shu darajada rivojlanganligidan ham tarixda Borbad Marvaziy nomli turkistonlik bastakor, hofiz, sozandaning nomi zikr etilgan. U VII asrlarda Faxlobod (Borbad) nomi bilan mashhur boʻlib uni Eronga olib ketishgan. Faxlobod oʻzining musiqa maktabini yaratib, oʻn ikki maqomni baʼzi bir nusxalarini yaratilishiga asos solgan, yani Turkiston musiqasini Eronga tarqatgan. (“Maʼrif va madaniyat”) jurnali. Baku. 1923 y. N 8. 9 s.).

Har bir asr, davrda milliy musiqa ijrochiligida qandaydir musiqa cholgʻusi asosiy yetakchi oʻrin egallagan. Masalan: Sarq xalqlarida jumladan Oʻrta Osiyoda VII asrlardan to XVIII asrlargacha musiqa ijrochiligida “Oʻn ikki maqom” nomi bilan ataluvchi turkum asarlar ijro etilib, bunda “Ud” cholgʻusi asosiy hisoblangan boʻlsa, XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlanishida Oʻrta Osiyoning adabiyot, sanʼat va madaniyat rivojlangan shaharlaridan biri Buxoroda “On ikki maqom” turkumi oʻrniga “Shashmaqom” shakillanib, buning ijrosida esa “Tanbur” asosiy musiqa cholgʻusi boʻlgan.

Oʻrta Osiyo hududidagi - Oʻzbekiston, Tojikiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Turkmaniston davlatlarida turli-tuman musiqa cholgʻulari boʻlib, bu davlatlarda bir xil nom bilan ataluvchi lekin turli xil asarlarning ijrosiga moʻljallangan musiqa cholgʻulari milliy musiqa ijrochiligida keng qoʻllanilmoqda . Ular – Tanbur, dutor, doyra, rubob, surnay, karnay, gʻijjak, nogʻora, chang, qobuz va hokazo. Shu qatori ayrim viloyatlarning oʻziga xos musiqa cholgʻulari boʻlgan. Xorazmda- bulamon, garmon, tor, Buxoroda- Afgʻon rubobi, Fargʻona viloyatida- qoʻshnay, dutor musiqa cholgʻulari bor. Abdurauf Fitrat oʻzining “Oʻzbek klassik musiqasi va uning tarixi” asarida maʼlumot berishicha 1920 yillarda Buxoroda-tanbur, dutor, nay, qoʻshnay, qobuz, doyra, rubob, nogʻora, karnay, sunray, doʻmbra kabi musiqa cholgʻulari ijrochilikda qoʻllanilgan. Hozirgi Tojikiston hududi to Afgʻoniston chegarasigacha janubiy Buxoro deb atalgan. Undan tashqari juda koʻp xorijiy davlatlar bilan chegaradoshdir. Masalan: Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Qirgʻiziston, Afgʻoniston hamda Xitoy, Hindiston, Pokiston kabi koʻp davlatlar bilan chegaradosh, baʼzilariga yaqin. Tojikistonning Togʻli Badaxshon Avtanom viloyatida Pomir rubobi, Badaxshon rubobi, blandzikom va Badaxshon tanburi, Badaxshon setori, Pomir nayi, qumri, doʻmbra, jigʻak, gaf, labchang, panjtor, duvozdah tor (oʻn ikki torli) va boshqa nom

bilan ataluvchi musiqa cholgʻulari ijrochilikda qoʻllanilmoqda. Tojikistonning Xoʻjand, Oʻratepa, Isfara, Konibodom kabi manzilgohlari Fargʻona vodiysi bilan chegaradosh boʻlib, musiqa ijrochiligi ham bir-biriga yaqin. Koʻlob, Qorategin, Darvoz, Gʻarm manzilgohlarida cholgʻu va ashula yoʻli ijrosiga xos musiqiy asarlar ijrolarida koʻproq dumbra, tablak, jigʻak (gʻijjak) kabi musiqa cholgʻulari qoʻllaniladi. Ayniqsa Oʻrta Osiyoning barcha hududlarida dutor, doʻmbira, doyra, gʻijjak, nay koʻproq uchraydi. Hozirgi kunda Oʻrta Osiyo hududida qadimiy musiqa cholgʻulari bilan bir qatorda koʻp ovozlilikka moslashtirilgan (rekonstruksiya) musiqa cholgʻulari mavjud. Oʻrta Osiyoning yirik shaharlaridan Toshkent, Dushanbe, Olma Ota, Samarqand shaharlarida Oʻrta Osiyo va Umumjahon miqyosidagi musiqiy anjumanlar oʻtkazilib, milliy musiqa ijrochiligiga xos asarlar, jumladan milliy musiqa cholgʻularining ijrolari namoish etilmoqda. Olma Ota shahrida 1973 yil da oʻtkazilgan Osiyo davlatlarining musiqiy tribunasi, Dushanbe shahrida 1990 yilda Borbad Marvaziyning tavalludini 1400 yilligiga bagʻishlab oʻtkazilgan umumjahon musiqiy anjumani, Toshkent shahrida 1975 yilda oʻtkazilgan “Maqom, mugam va zamonaviy bastakorlar ijodi” hamda Samarqand shahrida koʻp yillardan buyon oʻtkazilib kelinayotgan umumjahon musiqiy anjumanlari va keyingi yillarda Samarqandda oʻtkazilayotgan “Sharq taronalari” musiqiy anjumanlari shular jumlasidandir.

Shunday qilib hozirgi kunda Sharq xalqlari xususan Oʻrta Osiyo hududidagi davlatlarda maqom asarlari (Buxoro, Xorazm, Fargʻona- Toshkent maqomlari) hamda uygʻur maqomlari, klassik kuylar, xalq ashulalari, baxshichilik, dostonchilik, folʻklor qoʻshiqlari, aytishuvlar, lapar va boshqa musiqa ijrochiligiga xos musiqiy asarlar ijrosida turli tuman 30 dan ortiq musiqa cholgʻulari qoʻllanilmoqda.

Milliy musiqa cholgʻularini ijrolariga umuman milliy musiqa ijrochiligiga kam eʻtibor berilib, natijada 1972 yilda Toshkent Davlat konservatoriyasida Sanʻatshunoslik fanlari doktori, professor Fayzullo Karomatov rahbarligida maqom asarlarini ijrolari, umuman milliy musiqa ijrochiligiga xos “Sharq musiqasi” kafedrasi tashkil qilinib, milliy musiqa cholgʻularini ijrolari qayta tiklanib, musiqa ijrochiligida ud, tanbur, qonun, nay, gʻijjak, dutor, rubob, doyra, surnay, qoʻshnay, sato va boshqa musiqa cholgʻularini milliy uslubdagi ijrolari ham oʻrganila-boshlangan. Demak hozirgi kunda anʻanaviy musiqa ijrochiligida barcha milliy musiqa cholgʻularini milliy uslubdagi ijrolariga katta eʻtibor berilmoqda.

II–BOB. O‘ZBEKISTONDA MAVJUD DAMLI MUSIQA CHOLG‘ULARI

II.1. NAY MUSIQA CHOLG‘USI

Nay – o‘zbsk milliy cholg‘ularidan biri bo‘lib, qadim zamonlardan xalq orasida keng ommalashgan. Tarixiy obidalar va o‘tmish musiqiy risolalarida yozilishicha pay cholg‘usi ilk yaratilgan nusxasida saqlangan. Xususan IX-X asrlarda yashab ijod qilgan, Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr al-Farobiy o‘zining "Katta musiqiy kitobi" risolasida ta‘riflangan nay cholg‘usi zamonaviy naydan deyarli farq qilmaydi.

Azaldan, sozandalar turli jismlardan tayyorlangan naylardan foydalangan. Odatga ko‘ra, -nay sozi daraxtdan, qamishdan va misdan yasalgan. Abdurauf Fitrat o‘zining "O‘zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida "nay" qamish ma‘nosida forsiycha bir so‘zdir. Bizda birinchi (bronza) yo baqir (mis)dan yasalgan deb izohlaganlar. Shu bilan birga biz oq metall (alyumin)dan yasalgan naylarni ham uchra-gishimiz mumkin. Amaliyotda keng qo‘llanilgani hozirgi davrda, an‘anaviy ijrochilik amaliyotida ko‘proq g‘aravdan yasalgan naylar qo‘llaniladi.

Nay cholg‘usida 7 ta maxsus teshikchalar mavjud. Ulardan bittasi cholg‘uning yuqori tomonida — puflash uchun mo‘ljallangan. 6 tasi esa quyi tomonda — cholg‘uning pardalari hisoblanib, barmoqlar yordamida muayyan tovushlarga ega bo‘linadi. Odatda, naylar 32-34 sm uzunlikda bo‘lib, 2,5 oktava oralig‘idagi tovushga egadir.

Nay cholg‘usi o‘ziga xos soz bo‘lib, tovush hosil qilinishi bo‘yicha "xushtaksimona" cholg‘ular oilasiga mansubdir. Chunki ichkaridan tiqilib kelgan kuchli nafas to‘liqini nay teshigining o‘tkir qirrasiga uriladi va u yerda kesiladi. Nay ichiga kirgan nafas yo‘nalishi u yerda aylanma harakat hosil qilib nay ichiga qamalgan havoni ham harakatga keltiradi va hosil bo‘ladi. Bunda 4 ta ijrochilik vositasining birgalikdagi harakati cholg‘uchi uchun eng muhim omil hisoblanadi. Bular: a) lab, b) til, v) nafas, g) barmokdar harakati.

a) Labning vazifasi: — Nay cholg‘usida lab asosan ichkaridan tiqilib kelgan kuchli nafasni nay teshikchasi qirrasiga to‘g‘ri yo‘naltiruvchi va uni boshqarib turuvchi vazifani bajaradi. Bunda pardani sozlash (0,5 tongacha pasaytirish yoki ko‘tarish) va turli bezaklarni chalishda lab va uning mushaklari asosiy rol o‘ynaydi.

b) Tilning vazifasi: — Nay cholg‘usida til ichkaridan tiqilib keladigan nafasni ushlab turuvchi asosiy klapan vazifasini bajaradi. Ya‘ni til keskin

orqag'a chskingani zahoti tiqilib turgan nafas iay teshig'ining o'tkir qirrasiga uriladi. Shu bilan birga til nay ijrochiligida turli shtrixlarni bajarishda (stakkato, detashe va h.k.) "tu", "qu" unsizlari orqali kuy ijrosini badiiy i4yuda vositalarini ta'minlaydi.

v) Ijrochilik nafasi: – Oddiy nafas bilan ijrochilik nafasining farqi bor albatga. Oddiy nafas bir minutda 16-18 marta teng oraliqsa olib-chiqariladi. Ijrochilik nafasi esa olish tez, chiqarish ya'ni sarflash tejalgan holda amalga oshiriladi. Ijrochilik amaliyotida nafas uch turga bo'linadi: a) o'pkaning pastki qismiga olinadigan korin nafas; b) o'pkaning yuqori qismiga olinadigan kO'krak nafas: v) ikkala nafasni samarali qo'llanilgan aralash nafas. Aralash nafas ijrochilikda qo'llaniladigan asosiy nafaslardan bo'lib, bunda qorin mushaklari (diafragma) nafas kuchini oshirishda va tayanch nukta vazifasini bajarishda katta rol o'ynaydi. Nay cholg'usida tez nafas olib uni sarflash jarayonida bir me'yorda-ravon va davomiyligini ta'minlash lozimdir. Sarflanayotgan havoni (gguflash jarayonida) kuchsiz va ku^shshigi past va baland pardalarni olish uchun zarurdir. Past pardalarga kuchsiz va baland pardalarga kuchli puflash orqali erishiladi. Bu bilan kuyning "dinamik" sifatlariga erishilio, Itseodaviy xususiyatlar bilan boyitiladi.

g) Barmoklashshng vazifasi: — teshiklarni berkitib turuvchi yostiqch vazifasini o'ynaydi. Sozandaning barmoqlari cholg'uda erkin harakat qilish uchun qulay holatda joylashishi lozim. Chunki, cholg'uda tovushqator bo'ylab xaraka aynan barmoqlar orqali bajariladi. Milliy ijrochilikya; mavjud bo'lga "forshlag", "trel", "bidratma", "kashish", "nola" kabi qochirim-bezakla barmoqlar orqali amalga oshiriladi. Barmoqlar choltu bilan birgalikda asosi pardalar hisoblanadi. Ijro jarayonida yopiladigan tsshiklar barmoqlar bila jips yopilishi lozim.

Nay sozi ijrosi uchun ushbu qayd etilgan ifoda vositalari eng muhimdi] Ularni sozandada bir-biri bilan mutanosib holda shakllanishi tgqozo etiladi.

Puflab chalinadigan musiqiy.cholg'ularni yana bir o'ziga xos tomoni, har bi asarni takroriy talqini o'zgzcha ijro etiladi. Ayniqsa, ikki chol! hamiafasligiga erishish munjul. Zero, ushbu uch tayanch holatdan o'zga — ijrochin iste'dodi, texiik imkoniyati, bilim saviyasi, ijodiy yondoshishi, tinglash I sezish qobiliyatlari kabi qator sifatleri o'z darajasini namoyon etadi. Shu bo» puflab chalinadigan cholg'ularimizni ilk saboq jarayonini to'g'ri o'rgatish muhi ahamiyat

kasb etadi. Ustoz muallimlarning e'tibori avvalo boshlang'ich jarayon] qaratilishi maqsadg'a muvofikdir.

Nay ijrochiligida qo'llaniladigan sayqallar o'zga cholg'ular kabidi; Ularni ifodalanishlari ham chop etilgan "Rubob navolari", "G'ijjak navolarg to'shgamlarida keltirilgan bezaklar kabidir. Lekin, nazarimizda nayning o'zi! xosligi ham mavjud.

Ushbu to'»Ilamda biz nay ijrochiligining nafas usullari va ijro uslubi] tayangan holda musiqiy namunalarni nay cholg'usiga moslashtirishga urindi Asarlarni asl holatini saqlashga harakat qildik. Shu bois mustaq* notalashtirish bilan birga, akademik Y.Rajabiyning "O'zbek xalq musiqask kitobining P-SH-1U va V jildlarida chop etilgan xalq va maqom tarkibi] kiritilgan asarlarni asos qilib oldik. To'plamda nay ijrochiligiga xos sodg xalq kuylari, zamondosh bastakorlarimizni asarlari va damli cholgular uchun qulay hamda xos bo'lgan Navo va Segoh maqom turkumlaridan namunalar keltirdi: O'ylaymizki, ushbu kamtorona to'gshamimiz bo'lajak sozandalarni tarbiyalagsh xizmat qiladi.

Nay, qo'shnay, surnay, karnay musiqa cholg'usi barcha sharq xalqlarida uchraydi. Ko'pgina davlatlarda nay musiqa cholg'usi yotiq holda ijro etilsa, ba'zi davlatlarda esa tik holda ijro etiladi.

Nay musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Ulardan birida go'yo nay temirchilarning olovini havosi orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlono Safiuddin Al-Mo'min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. (Askarali Rajabov. Nag'mai Niyogon. Dushanbe. Irfon. 1988. 124 .).

Nay musiqa cholg'usi zardolidan, tutdan, g'arovdan, nuqra, kumush yoki misdan yasaladi. Unda yetti ovoz chiqaruvchi teshik pardalar bo'lib, bittasi alohida og'izdan nafas berish uchun, oltitasi bir joyda birin-ketin olti barmoqqa moslanib, bular asosiy sado chiqaruvchi aylana pardalar hisoblanadi.

1924 yillarda Buxoroda mavjud nay cholg'usi to'g'risida quyidagicha ma'lumotlar berilgan: "Nay qamish ma'nosida forsiycha bir so'zdir. Nay "birinj" yo "baqir"dan (kumush yoki mis) yasaladur". (Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent 1993 yil 33.s.). Ya'na bir asarda tanbur musiqa cholg'usini sozlanishida Buxoroda mavjud naylardan foydalanilganligi ya'ni mis nay-"sol", yog'och nay-"lya-bemol", g'arov nay-"lya" tovushlarini berib, asar ijrosida tanbur yuqoridagi naylardan biri – "sol", "lya-bemol" yoki "lya" tovushlariga soz qilinar ekan. (H.Миронов. Музыка узбеков. Самарканд. 1929. 12 с.) O'zbekistonda nay musiqa cholg'usi musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo'llaniladi. Nay sozi ijrochiligida o'ziga xos ijrochilik yo'llariga ega bo'lgan Ustozlardan – Abduqodir Ismoilov,

Homidjon Jalolov, Ayub Qodirov, Saidjon Kalonov, Halimjon Jo‘rayev, Abdul Ahad Abdurashidov, Mirza Tohirov, Ahmadjon Sobirov, Tojikistonda esa Nison Shoulov va boshqalar shular jumlasidandir. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasida nay sinfi bo‘yicha professor Mirza Tohirov va dotsent Ahmadjon Sobirov ustozlik qiladi.



Abduqodir Ismoilov

Abduqodir Ismoilov atoqli xalq sozandalaridan biridir. Ismoilov 1888 yilda Qo‘qonning mashhur muzikachisi Ismoil naychi oilasida tug‘ilgan. Ismoil naychi o‘zi tashkil qilgan ansambl bilan kech-qurunlari choyxonalarda konsert berar edi.

Abduqodirning muzikaga bo‘lgan havasi erta uyg‘onadi. Uning birinchi ustози otasi edi. Otasi vafot etganidan keyin bola choyxonada ishladi va bir kunlik mehnatiga 15—20 tiyindan haq olardi. Abduqodir o‘n to‘rt yoshida mustaqil muzikachi bo‘lib yetishdi. U ham boshqa muzikachilar singari to‘ylarda va choyxonalarda ijro etardi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan keyin yigitcha Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkil qilgan „Sayyor“ teatr truppasiga kiradi. Bu truppa Hamza yozgan pyesalarni sahnaga qo‘yardi. Spektakllar milliy cholg‘u ansambli jo‘rligida ko‘rsatilardi. Ismoilov 1926 yilda Qori Yoqubov tomonidan tashkil etilgan etnografik muzikaansambliga kiradi. Bu ansamblga eng yaxshi o‘zbek muzikachilaridan: Usta Olim Komilov, Ahmadjon-Umurzoqov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, ashulachi va raqqosa Tama-raxonim va boshqalar jalb etilgandi. Ansambl tashkil bo‘lganidan bir yil keyin Moskva, Volga bo‘yi shaharlari va Kavkazga gastrolga boradi. Bundan maqsad—

qardosh xalqlarni o'zbek xalq muzikasi boy-ligi bilan tanishtirish edi. Ansambl repertuarida „Yovvoyi chor-goh"dan tortib „Vox-voho to'ram", „Olmacha anor" kabi mashhur-laparlargacha bor edi.

Abduqodir Ismoilov 1928 yilda Samarqand muzika va xore-ografiya institutida nay chalishdan dars beradi. U keyingi o'n Yil mobaynida Toshkentdagi O'zbek Davlat muzikali teatrida nay-chi bo'lib ishlaydi.

Ismoilov eng yaxshi o'zbek muzikachilari qatorida turli slyot-lar, festival va konkurslarda tez-tez qatnashib turadi. Masalan, u to'rtta o'zbek muzikachilari bilan birga Londonda bo'lib o'tgan (1935) xalq raqslari festivaliga, Moskvada bo'lib o'tgan (1937) o'zbek san'ati dekadasiga, xalq sozandalarining Butunittifoq ko'-ch rigiga qatnashadi (1939).

Ismoilov repertuari Toshkent, Farg'ona maqomlarining „Pat-nus chorgoh", „Patnuye bayot", „Dugoh" kabi qismi, „Ko'p erdv* nomli farg'ona xalq ashulasi, o'zi qayta ishlagan „Sayqala nomli Farg'ona dutor kuyi, „Qora sochim" lirik xalq kuyi (sakkiz-variantda) va boshqa asarlardan iborat edi.

Bu kuylar Ismoilovning ijrosida san'atshunoslik instituti-da (1950 yil) magnitofonga yozib olingan. Bu bir qismlik katta ashulalardan tashqari Ismoilov „Sarbozcha", „Mirzadavlat", „Su-vora", „Savti suvora", „Navro'zi ajam" kabi syuita singari bir-necha qismlardan tashkil topgan kichik kuylarni bilardi. Bu kuy-lar ham san'atshunoslik instituti tomonidan yozib olingan. Bu kuylar sikli ijrochi tomonidan o'zgartib aytilishi ham mumkin edi; ijro etuvchining didi va xohishiga bog'liq edi. Ular odatda g'ijjak, tanbur, dutor, nay va doiralardan tashkil topgan cholg'u asboblari ansambli uchun belgilanardi. Shuningdek bu kuylarni istagan asbobda yakka ijro etish mumkin edi. Ko'rsatilgan kuylar-ning ba'zilari („Sarbozcha", „Suvora") ashula sifatida aytilsa, boshqalari („Mirzadavlat", „Navro'zi ajam") esa faqat cholg'u as-boblarida chalinadi. Ismoilov bu kuylarning hammasini Qo'qon-ningmashhur muzikachisi Ashurali Mahram g'ijjakchidan o'rgangan edi.

Abduqodir Ismoilov o'zbek muzika tarixiga juda qiziqardi. U, o'zining ko'p yillik ijodiy faoliyati davrida to'plagan ma'lu-motlarini zo'r qiziqish bilan hikoya qilib yurardi

Muzikachi maqomlarning kelib chiqishi va ular o'rtasidagi farq-lar masalasiga juda qiziqar edi. U maqomlarning asosi Buxoro „Shashmaqomi" dir, derdi. Ismoilov maqomlarni bir muzikachidan ikkinchi bir muzikachi og'zaki o'rganib olganida albatta o'zgaradi, chunki har bir muzikachi kuyni o'zi istaganidek, ozgina bo'lsa ham o'zgartirib ijro etadi, muzika folklorini o'rganuvchilar bunga e'tibor qilishlari kerak, derdi.

Ismoilovning S. Kalonov, M. Tillayev, A. Qodirov kabi shogird-lari hozirda tanilgan muzikachilardandir.

Xalq muzikasini yaxshi biluvchi va ajoyib ijrochi bo'lishiga qa-ramay, o'z ustida qunt bilan ishlovchi cholg'uchini xalq juda yaxshi hurmat qiladi.

1941 yili respublika muzika jamiyati Abduqodir Ismoilovning ijrochilik faoliyatiniig 40 yilligini nishonladi. Ko'p yillik fa•oliyati va yo-shlarni tarbiyalab yetishtirgani uchui muzikachiga O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi. 1945 yili uMe.hnat Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlangan edi. 1945 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanat arbobi unvoni berilgan.

Nay musiqa cholg'usi barcha sharq xalqlarida uchraydi. Ko'pgina davlatlarda nay musiqa cholg'usi yotiq holda ijro etilsa, ba'zi davlatlarda esa tik holda ijro etiladi.

Nay musiqa cholg'usining yaratilishi haqida turli xil ma'lumotlar mavjud. Ulardan birida go'yo nay temirchilarning olovini havosi orqali puflab beradigan narsasiga qiyos qilib Xorazmshoh Mavlono Safiuddin Al-Mo'min tomonidan ixtiro qilingan deyiladi. (Askarali Rajabov. Nag'mai Niyogon. Dushanbe. Irfon. 1988.



O‘zbekiston xalq artisti Abdulahad Abdurashidov



O‘zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi xalq cholg‘ulari orkestrida nay cholg‘uchi sozanda, O‘zbekistonda Xizmat ko‘rsatgan artist, xonanda, bastakor Halimjon Jo‘rayev.



Yetuk naynavoz Rustam Odilov. Sodirxon hofiz nomidagi

musiqa bilim yurtida nay sinfi
bo'yicha ustoz. Xo'jand shahri. 1988 yil.



Buyuk naynavoz Tojikiston Xalq artisti.
Nison Shoulov.



Buyuk naynavoz Qurbonali Yoqubov. Malika Sobirova nomidagi musiqa maktabida nay sinfi
bo'yicha ustoz. Dushanbe shahri.1988 yil.

II.2 QO‘SHNAY MUSIQA CHOLG‘USI

Qo‘shnay asosan ikkita qamishdan yasalgan musiqa cholg‘usi bo‘lib, avvallari faqat xalq orasida ijro etilib kelingan. Keyingi yillarda esa bu musiqa cholg‘usining ijrosi ko‘pgina musiqa dargohlarida ham o‘rganilmoqda va musiqa ijrochiligida keng miqyosda qo‘llanilmoqda. Qamish naychani yuqori tomoni berkitilgan, pastgi tomoni esa ochiq. Yuqori qismida maxsus tilchak ochilib, nafas orqali puflab ijro etishga mo‘ljallangan va yettita sado chiqaruvchi parda teshiklari mavjud. O‘zbekistonda keksa qo‘shnay cholg‘uchi ustozlardan keng tanilgan Ahmadjon Umurzoqov, Xorazmda esa Qurbonboy og‘a Otajonovlar bo‘lib, hozirgi kunda ushbu ustozlar an‘analarini Yo‘ldoshali Tojiyev, Matrasul Matyoqubov (Xorazm), Mirzasharif Mirbarotov (Toshkent), Nasriddin Aliyev (Buxoro), Otajon Matjonov (Qashqadaryo) va boshqalar davom ettirmoqdalar.



Ahmadjon Umurzoqov

Ajoyib sozanda Ahmadjon Umurzoqov 1888 yil-da Qo‘qonda hunarmand- to‘quvchi oilasida tug‘il-gan. U otadan yoshligida yetim qolib, Shokirboy-ning to‘quvchilik ustaxonasiga ishga kirishga maj-bur bo‘ladi va u yerda o‘n yilga yaqin ishlaydi. Bolalik vaqtida qo‘shnaychi usta Ro‘zmat ijrosida eshitgan muzika Ahmadjonda juda kuchli taassurog qoldiradi. Keyinchalik bola usta Ro‘zmatga sho-gird tushadi. „Omon-omon" va „Gumbur-gumbur" Ahmadjonning o‘rganib olgan dastlabki kuylari-dan edi.

Revolyutsiyaga qadar Ahmadjon Umurzoqov muzp-ka bilan shug‘ullanishini to‘quvchilik ustaxonasp-dagi ish bilan birga olib borib, havaskorlardan. iborat ansambl bilan kechqurunlari to‘y va choy-xonalarga borardi. Muzikachilar orasidagi odat-ga ko‘ra oqsoqol saylanar (odatda kekxa muzika-chilar saylanar edi) va u tushgan takliflarga ko‘ra muzikachilarni to‘ylarga taqsimlardi. Umurzoqovga avvallari haq to‘lamas edilar, lekin mahorati oshgan sari unga ozgina-ozgina pul beradigan bo‘ldilar.

Umurzoqovning Qo‘qondagi otoqli xalq muzikachilaridan Ham-raqul surnaychi, Xoliq qo‘shnaychi, Abdurahmon hoji tanburchi, ashulachilardan Nazirxon, Madmarxon, Abduqahhorlar bilan yaqin aloqada bo‘lpshi uining repertuarini yanada boyitdm. Umurzoqovning bu davrdagi repertuari „Bayot“, „Dugoh Husayin“, „Ush-shoq“ va boshqalardan iborat edi. Muzikachi keyinroq Toshkentning mashhur hofizi Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, shuningdek tanburchi Shpborat bilan tanishadi va ular ansambliga kiradi.

Ahadjon Umurzoqov revolyutsiyaning birinchi yillarida Hamza Hakimzoda Niyoziy tashkil etgan teatr truppasiga kiradi. Bu trup-pa „Tuhmatchilar jazosi“, „Kim to‘g‘ri“, „Zaharli hayot“, „Fargona fojiasi“ kabi Hamzaning hajviy hamda satirik xarakterdagi pyesalarini qo‘yardi. Bu pyesalarning hammasigaHamzarahbarligida-gi muzika ansambli jo‘r bo‘lardi.

Umurzoqov 1923 yilda o‘n besh o‘zbek xalq muzikachilari bilan birga Butunrossiya qishloq xo‘jalik vistavkasida berilgan kon-sertlarda qatnashadi. U 1926 yilda O‘zSSR Xalq Maorif Komis-sarligi huzurida tashkil etilsan Etnografik-konsert ansambliga kiradi va ular bilan Volga bo‘yi, Moskva, Leningrad, Boku sha-harlarida bo‘ladi.

Umurzoqov 1928 yilda Farg‘ona muzikasi ustalaridan biri si-fatida Samarqanddagi muzika va xoreografiya ilmiy-tekshirish in-stitutiga taklif qilinadi. Umurzoqov bu institut xodimlarini „Kurt“, „Eshvoy“, „Mirzadavlat“, „Bochavotur“, „Karim qushbegi“ kabi kuylar bilan tanishtiradn va xalq kuylarini yozishda ishti-rok etadi. Qo‘shnaychi 1930 yilda Toshkentda tashkil etilgan O‘zbek Davlat muzikali teatriga taklif qilinadi.

Umurzoqov Moskvadagi xalq ijodiyoti olimpiadasida (1930), o‘zbek san’ati dekadasi (1937), xalq cholg‘u asboblari ijrochi-lari konkursi (1939) kabi o‘zbek xalq muzikasining katta-katta namoyishlarida qatnashgan. U konkursda „Bayot G, „Dugoh Husayin‘ maqomlaridan parcha, xalq kuylaridan „Dashnovot“, „Metro“ni qo‘shnayda „Daromadi ushshoq“ni surnayda ijro etgan edi. Umur-zoqov konkursda ikkinchi o‘rinni egallaydi.

Ahadjon Umurzoqov dekadadan keyingi davrda O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi solisti bo‘lib, keyinroq esa Muqimiy nomli respublika muzikali drama teatrida bosh muzikachi bo‘lib ishlay-di (teatr tashkil etilishi munosabati bilan Umurzoqov bu ishga taklif etilgan edi).



Q o'shnay musiqa cholg'usi.



O'zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomidagi Xalq cholg'ulari orkestrining ustoz qoshnay cholg'uchi navozandasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Mirzasharif Mirbarotov.



Xorazimdagi Matyusuf Xarratov nomidagi san'at kollejida qo'shnay sinfi bo'yicha ustoz maqom tanlovlarining sovrindori, respublika, O'rta osiyo, umumjahon miqyosidagi

musiqiy anjumanlarning ishtirokchisi va g'olibi buyuk qo'shnaynavoz Matrasul Matyoqubov.



Buyuk qoshnaynavoz
Yo'ldoshali Tojiyev.
Xorazm. 1978 y.



Buyuk qoshnaynavoz
Nasriddin Aliyev.
Buxoro. 1977 y.



Qarshi davlat san'at bilim yurtida qoshnay sinfi bo'yicha ustoz Otajon Matjonov.

II.3. SURNAY VA KARNAY MUSIQA CHOLG‘USI

Surnay musiqa cholg‘usi ham o‘z murakkabligi bilan ijrochidan ulkan mahoratni talab qiluvchi cholg‘u hisoblanadi. Surnayning turli xil nusxalari mavjud. Farg‘ona, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo va boshqa joylarda katta nusxadagi surnay, Xorazmda esa kichikroq shaklli tuzilishidan ham farq qiluvchi surnay cholg‘ulari bor. Surnay asosan tut, zardoli daraxtlaridan tayyorlanadi. Surnayda quyidagi nomlanishdagi tuzilmalar mavjud. Surnayning tana qismi, boshlanish tomoni kichikroq doyra shaklda, quyi tomoni esa kattaroq aylana shaklda. Uning ijrosi uchun esa misdan kichik naysimon nusxa nil tayyorlanib, surnayning yuqori qismiga joylashtiriladi. Bunga nafasdan to‘g‘ri foydalanish maqsadida ebonit yoki daraxtdan aylana shakldagi “Peshdam” nomli narsa tayyorlab o‘rnatiladi. Uning yuqorisiga esa qamishdan tayyorlangan kichik naycha yasab o‘rnatiladi. Naychani holatini yaxshi saqlash maqsadida, misdan nil cho‘p yasaladi va naycha tozalanib turiladi. Surnayni ustki qismida yettita sado beruvchi aylana parda teshigi bor.

Surnay xalq sozandalari tomonidan ikki xil uslubda ijro etiladi. Musiqiy asar ijrosi jarayonida, shu asarni nafas qaytarish yo‘li bilan, uzluksiz bir nafasda ijro etish, har bir musiqa parchalarini ijrosidan keyin nafas olib ijro etish yo‘llari mavjud. Surnayda turli xil turdagi musiqiy asarlari ijro etilgan. “Surnay navosi”, “Shodiyona” va hokazo. Eng yetuk surnaychi sozandalar Ahmadjon Umirzoqov, Tursun Jumayev, Qurbonboy ota Otajonov hozirgi kunda esa bu ustozlar an‘analarini ularning davomchi shogirdlari; Yo‘ldoshali To‘jiyev, Matrasul Matyoqubov, Toshpo‘lot Ahmedov, Otajon Matjonov va boshqalar davom ettirmoqdalar.

Surnayning tovush qatori.





Ashirali Yusupov

Qo‘shnaychi va surnaychi Ashirali Yusupov mashhur xalk cholg‘uchilaridan biridir.

Ashirali Yusupov 1893 yilda Andijonda kambag‘al kosib oilasida tug‘ilgan. Bola yoshligidan muzikaga qiziqadi: o‘n yoshidan boshlab Andijonda tanil-gan surnaychi Rustambekdan surnay chalishni o‘rga-nadi.

Ashiralining oilasi ko‘p o‘tmay oila boshlig‘i-dan ajraladi va oilaning barcha og‘irligi bola-larning ichida eng kattasi –Ashirali zimmasiga tushadi. Shundan so‘ng bola turli xil yollanma ishlarni bajaradi va o‘z ustoz Rustambek bilan birga to‘ylarga qatnaydi.

Lekin, muzikachilarning ishi mavsumlik bo‘-lib, bahordan to kuzgacha to‘y bo‘lmasdi. Bu vaqt-larda muzikachilar o‘z asboblarini sotardilar yoki o‘z asboblarini biror boy kishiga kafilga qo‘yib, evaziga pul qarz olardilar yoki chorikorlik qilardilar. Muhtojlik Ashirali Yusupovni 1916 yilda Yo‘l-doshboyning o‘g‘li o‘rniga Pskovga mardikorlikka yo‘llyaydi. U va‘-da qilingan uch oy o‘rniga bir yil ishlayyai. Chorizm ag‘darilgandan keyingina tirik qolgan kishilar o‘z vatanlariga qaytadilar. Yusu-pov o‘zshahriga qaytgach, muzikachilar uyushmasiga kiradi. Uyushma-ga oqsoqol rahbarlik qilar va u muzikachilarni to‘ylarga taqsim-lar edi. Oqsoqol muzikachilar topgan pulning bir qismini olar-di.

Yusupov Sovet hokimiyati o‘rnatilgandan so‘ng muzikachilar an-sambli bilan qizil choyxonalarda konsertlar beradi. U 1923 yilda Moskvadagi Butunrossiya qishloq xo‘jalik vistavkasida beril-gan konsertlarda qatnashadi. Yusupov 1930 yildan boshlab Andp-jon muzikali

drama teatrida ishlaydi. O'sha vaqtlarda teatr to-monidan: „HuJum“, „O'rtoqlar“, „Layli va Majnun“, „Farhod va Shirin“, „Rustam“ spektakllari qo'yilar edi. Bu pyesalarning hammasi: g'ijjak, nay, surnay, qo'shiy, doira va dutordan tashkil etilgan muzika ansamblining jo'rligida ko'rsatilardi. „Rustam“ pyesasidagi muzika Ashirali Yusupov tomonidan to'plangan xalq kuylari asosida yaratilgan edi. Andijon teatri 1923 yilda Le-ningradga gastrolga boradi va tomoshabinlar tomonidan yaxshi kutib olinadi.

Yusupov 1936 yilda Moskvada (1937) bo'ladigan o'zbek san'ati dekadasiga tayyorgarlikda qatnashish uchun Toshkentga kelib, „Kol-xoz to'yi va sayil“ inssenirovkasida surnay chaladi.

Sozanda keyingi yillarda O'zbekiston Davlat filarmoniyasida surnaychi va qo'shnaychi bo'lib ishlaydi. Yusupov 1940 yildan bosh-lab Muqimiy nomli muzikali drama teatri orkestrida muzikachi bo'lib ishlaydi.

Yusupov dorvozlar va qo'g'irchoq teatri tomoshalarida va to'y-larda chalinadigan qadimgi instrumental kuylarni o'z xotirasida yaxshi saqlab qolgan.

Ularning bir qismini San'atshunoslik instituti magnitafon-ga yozib olgan. Ular ichida dorvozlarning „Suvora“, „Duchava“, „Charx“ kuylari ayniqsa qiziqarlidir. Birinchisi dorvoz dorga chiqayotgan vaqtda chalinadi; „Duchava“ uning ketidan boshlanib, bu kuy chalinganda dorvoz yuqorida tur/gi harakatlar ko'rsatadi: uchinchi kuy—„Charx“ — dorvoz aylanayotgan vaqtda chalinadi. Dor-voz o'yini doiraning tirillashi ostida tamomlanadi. Bu kuylar-ning hammasi uzluksiz ijro etiladi va dorvozning harakati qan-cha talab qilsa shuncha takrorlanaveradi. Har bir kuy ma'lum bir usulga ega.


Yusupov repertuarida „Navo“, „Navo mushkuloti“, „Navo ufo-ri“ kabi surnayda chalinadigan to'y kuylari bor. Ilgari vaqtlar-da ular ashulasi bilan aytilardi, hozirgi vaqtda esa faqat cholg'u kuyi sifatida foydalaniladi.

Ashirali Yusupov Farg'ona va Toshkent oblastlarida chalinadi-gan kuylarning ko'pini 1912 yilda andijonlik surnaychi Rustam-bekdan o'rgangan.

Ashirali Yusupovga ko'p yillik ijrochilik faoliyati uchun 1944 yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist unvoni berilgan, shuningdek u „Shavkatli mehnatiuchun“ medali bilan mukofotlangan.



Surnay musiqa cholg'usi.



Buyuk sunray cholg'uchi sozanda Tursun Jumayev.
Qashqadaryo viloyati, Kojor qishlog'i.



Surnay cholg'uchi sozanda ustoz Mirzafoizov
Mirzaniyoz. Farg'ona vodiysi.



Surnay

Karnay katta hajmdagi misdan, kumushdan yasalgan musiqa cholgʻusidir. Karnay uch qismdan iborat boʻlib, musiqa cholgʻulari orasida eng baland va pastgi oktavalarda eng kuchli bas tovushli sado beruvchi musiqa cholgʻusi hisoblanadi. Albatta karnay asosan surnay, doyra yoki nogʻara joʻrligida ijro etiladi.

Oʻzbekiston hududida hozirgi kunda Qoraqolpogʻistonda Qubuz, Xorazmda Bulamon (Bolabon) nomli musiqa cholgʻusi ijrochilikda qoʻllaniladi, undan tashqari chang qobuz cholgʻusini asosan xotin-qizlar nafas va koʻrsatgich barmoq vositasida ijro etishadi. Safoil, qayroq, qoshiq kabi cholgʻular ham hozirgi kunda folʻklor anʻsambillari ijrolarida qoʻllaniladi.



Karnay musiqa cholgʻusi.

II.4. MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARINING IJROCHILIGI HAQIDA

Musiqa cholg'ularining ijrochiligi haqida qadimiy musiqiy risolalarda hehaho ma'lumotlar berilgan. Ularning yaralilishi, nomlanishi shu bilan hirga ba'zi bir ularning ijrochilari, mutrib-sozandalari, ijro etilgan asarlariga old ma'lumotlar ko'proq "Ud" va "Tanbur*¹ hamda "Nay" musiqa cholg'ulari haqida bo'lib, keyinchalik boshqa musiqa cholg'ulari haqida ham fikr yuritilgan. Musiqa cholg'ulari uchun dastlabki bastalangan musiqiy asarlarni cholg'u va ashula yo'li ijrolari quyidagicha nomlangan-advor, alhon, navo, parda, davr, ohang, kuy, qonun, savt, bong, lahn, amal, kor, asovot, aqsom, sado, rang, sano, tarkib, davr, fig'on, g'azzol, doston, surud, davl, jam, jins, iqo, zoita, iqoma, marg'ul, maqom, mizon, muloimot, ovo. naqsh, parda. naqra, nag'ma, nag'am, nag'omot, go'sha va boshqalar.

Ma'lumki barcha milliy musiqa cho'lg'ularining ijro yo'llari og'zaki an'ana "Ustod (ustoz) va Shogird" tizimi asosida olib borilgan. Bu lurdagi ijrochilik uslubi necha usriar daxonmiu shakillanib, ijrochilikda qo'llanilib, xalq orasida mavjud musiqiy asarlarning barcha turdagi nusxalari, namunalari shu asnodda ijro etib kelingan. Hatto Sharq Olimlari Forobiy. Urmaviy keyinchalik Komil Xorazmiylar tomonidan "Ud" va "Tanbur" musiqa cholg'ularining ijrosiia mos nota tizimlarini yaratilishiga harakat qilingan. Lekin bu ijro uslublari keyingi asrlarda yashagan musiqashunos olimlar tomonidan takomillashtirilmagan. Ushbu yaratilgan nota tizimlari keyinchalik Ovrupo nota tizimini yaratilishi \a rivqjiga asos bo'lgnn bolishi mumkin.

Og'izaki an'ana uslubiga xos musiqa ijrochiligidagi ijro yo'llari xususan milli> musiqa cholg'ulari ijrolari jarayonida musiqa sadolarini yanada jozibali, mungli, yoqimli, ta'sirchan, hayratomuz va hokazo sadolanishi uchun turli xil milliy ijro bezaklari ijrochilikda qo'llanilib. ular turlicha nomlangan va hozirgi kungacha bu musiqiy bezaklar xalq mutqib-sozandalari tomonidan ijrochilikda qo'llanilib kelinmoqda.

Ular-nola, qochirim, kashish, zarb, zarbi oro, zarbi parron, teskari zarb, qo'sh noxun. pirrang, yakka zarb, to'lqinlanish, rez, bidratma, nolish, molish, zaxma orqali pastga va yuqoriga harakat va hokazo nomlar bilan atalib, bu milliy ijro bezaklari musiqiy ijro asarlarini xarakteriga va mutrib-sozandalarning ijrochilik mahoratlariga bog'liq holda ijro jarayonlarida qo'llaniladi. Bu ijrolar jarayonlarida ijrochining o'ta o'tkir ijro mahoratidan eshituvchi vu'ni shunavandalar turli xil holatlarga tushish, miriqib dam olish, hayratdan kuchli ta'sirlanib yig'lashi, baqirishi kabi hollar ham uchrab turadi.

Hozirgi kunda Ovrupo nota tizimi asosida notaga olingan milliy musiqa ijrochiligini cholg'u yo'li ijrosiga moslangan musiqiy asarlarni yuqorisiga ba`zi bir milliy ijro bezaklarini

qo'yib uning ijrolari ijrochilardan talab qilinmoqda. Lekin uning asosiy mohiyati va maqsadi aniq tushuntirib berilmagan. Notaga olingan asarni boshlanishdan to oxirigacha nola yuqorisiga, milliy bezaklar belgilarini qo'yib chiqilishi maqsadga muvofiq emas. Chunki musiqa ilmi va ijrochiligini o'rganish uch pag'onaga ya'ni Boshlang'ich, O'rta va Oliy toiralarga bo'lingan. Ba'zan maktabgacha ham musiqa ijrochiligidan saboq olinishi mumkin. Lekin notaga olingan musiqiy asarlarda qo'llanilgan milliy ijro zarblari yuqoridagi uch toifadan qaysi biriga mo'ljallanganligi haqida umuman fikr yuritilmagan. Shu bois milliy musiqiy ijro bezaklari bar bir notaga olingan musiqiy asarda berilishi maqsadga muvofiq emas. Ular kichik-kichik musiqiy ijrolar vositasida alohida-alohida misollar tariqasida berilishi, bu ijro bezaklari ijrochining o'la o'tkir ijrochilik mahoratiga bog'liqligini izohlab o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak hozirgi kunda ikki xil musiqa ijrochiligi mavjud. Bu og'zaki an'ana va nota uslubi asosidagi musiqiy ijrolar. Og'zaki an'ana ijro uslubi qadimui ayyomdan lo ho'irgi kungacha davom etib kelayotgan milliy musiqa ijrochilik maktabi bo'lib, bu uslubdagi ijrochilik yo'llarini mukammal eng yuqori ya'ni oliy darajada o'zlashtirish har bir mutrib-sozanda uchun dasturul amal bo'lishi shart va zarur.

Hozirgi zamon Ovrupo uslubidagi nota ijrochiligini amaliy va nazariy jihatdan puxta o'zlashtirilishi nafaqat mutrib-sozanda bal'ki barcha musiqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan hisoblanadi. Nota tizimini yuqori darajada o'zlashtirilishi nafaqat milliy musiqa ijrochiligiga xos bilimlarni amaliy va nazariy jihatdan anglab yetish balki, qardosh, xorijiy mamlakatlar musiqiy ijrochiligiga xos masalalarni chuqur anglab yetishda umumjahon musiqa tili hisoblanadi.

Hozirgi kunda o'zbek cholg'ushunosligi masalalari kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Keyingi yillarda cholg'u ijrochiligida yangi-yangi musiqa cholg'ulari ham qo'llanilmoqda. Buyuk-buyuk mutrib sozandalar yetishib chiqib milliy musiqa cholg'ulari ijrochilik imkoniyatlarini o'zlarining yetuk ustozona ijrolarini nafaqat O'zbekiston bal'ki O'rta Osiyo va ko'pgina xorijiy mamlakatlarda o'tkazilgan musiqiy anjumanlarda namoyish etib, shunavandalar olqishlariga sazovor bo'lib, cholg'ushunoslik, cholg'u ijrochiligi rivojiga o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

1939 yiida xalq cholg'u asboblari ijrochilarining butun ittifoq ko'rigida ishtirok etgan keksa xalq sozandalaridan Abduqodir Ismoilov nay, Ahmadjon Umurzoqov qo'shnay hamda Faxriddin Sodiqov chang musiqa cholg'ulari ijrolari bilan ishtirok etishlari va bu tanlovda Faxriddin Sodiqov ikkinchi o'rinni egallaganligi haqida ma'lumot berilgan. (K.Olimboyeva, M.Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalari. Toshkent 1959 yil. 117 s.). Bu an'analar to hozirgi kungacha davom etib har to'rt yoki besh yilda O'rta va Oliy musiqa dargohlarida musiqiy cholg'ulari

ijrochilari uchun alohida tanlovlar o'tkazilib, o'nlab yetuk mutrib-soandalar turli xil musiq? cholg'ularining yetuk ijrochilari sifatida e'zozlanmoqda va tanluv g'oliblari sovrindorlari bo'lmoqdalar.

Ma'lumki eng yetuk mutrib-sozandalar Buxoro, Samarqand. Xorazm. Toshkent. Qarshi va Farg'ona vodiysidagi shaharlarda yashab faoliyat ko'rsatishgan. Buxoroda Ota G'iyos. Ma'rufjon Toshpolatov, Tohirjon Davlatzoda, Abdurahmon Umarov, To'ra Jo'rayev. Boboqui Fayzullayev, Fazliddin Shohobov, Shohnazar Sohibov hozirgi kunda Ari Boboxonov, Homidjon Jalolov. Orif Atoyev, O'lmasjon Rasulov, Shodibek Sharipov, Sarnarqandda-Hoji Abduiaziz Rasulov, Qori Sirqj, Nayimjon Hamroqo'lov, Ixtiyor Sultonov. Xorazmda-Matpano Ota Xudoyberganov, Matyusuf va Matyoqib Xarratov, Qurbonboy og'a Bobojonov, Matrasul Matyoqubov, Yo'ldoshali Tojiyiv, Ozod Bobonazarov, Rustam Boltayev, Toshkentda-Shohbarot Tanburchi, Shorahim Shoumarov, ularning davomchilari Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Rustam Negmatov, Ahmad Odilov, Murod Toshmuhammedov, Muhammadjon Mirzayev, Mahmudjon Muhammedov, Sunnal Samadov, Turg'un Alimatov, Orif Qosimov. To'ychi Inog'omov, Mahmud Yunusov, Mamadaziz Niyozpv. Jo'rabek Saidaliyev, Salohiddin To'xtasinov, Shavkat Mirzayev, Temir Mahmudov, Abduhoshim Ismoilov. Rahmatilla Samadov, Abdul Ahad Abdurashidov, Abdurahmon Xoltojiyev, Rifalullo Qosimov, Qahramon Komilov, Tohir Rajabov, Ahmadjon Dadayev, Zamira Miralimova, Malikaxun Ziya>cva va boshqalar, I'arg'ona vodiysidan-Berkinboy Fayziyev. To'xtasin Jalilov. RasLilqori Mamadali)c\.

Ro'zmat Isoyev, G'ulomjon Hojiqulov. Komiljon Jabborov va boshqalar. Qashqadaryodan-Abdulla Qodiriy, Mahmud Savdoiy. A'zam Rajabov, Bo'ronxon Muqimov. Ravshan Ziyodov. Islom Rajabov, Solohiddin Rajabov, Murodullo Abdukarimov, Nishonboy Avazov. Abdujabbor Rahmonqulov, Dilshod Mcgeshev, Otajon Matjonov va boshqalar shular jumlasidandir. Hozirgi kunda bu ustozlarning ijrochilik an'analari shogirdlar tomonidan o'rganilmoqda va targ'ib qilinmoqda.

Mutrib-sozandalar milliy musiqa cholg'ularida mungli sadolar hosil qilishda ustozlarning ijrochilik an'anasiga xos ijrolarini, ijro bezaklarini qo'llash qoidalarini mukammal o'rganish uchun tinimsiz mashaqqatli mashg'ulotlar olib boradilar. Masalan; dastlab musiqa cholg'ularini sozlash har xil jarangdagi sadolar hosil qilish, holat: o'tirish, cholg'u sozini ushlab va undan foydalanish, o'ng va chap qo'lning harakat qoidalari, hissiyot, mahoral, o'zini tuta bilish, esda saqlash va xotira, yuqori darajadagi bilim va ko'nikma. ezozlash va nihoyat ijro bezaklarni mohirona qo'llash, ko'pgina yetuk mutrib-sozandalarning ijrochilik maktablaridan xakirdur

bo'lish, ular ijrolaridagi yutuq va kamchilliklardan xulosa chiqara oishi. ustoz va shogirdlar orasidagi munosabatlar, talab va ijrolar, mashq qilish qoidalari, o'z kasbini qadilash va hokazo.

Mutrib-sozandalar yakka ijro, ikki, uch, lo'rt va o'ndan ortiq liamda ansambl. orke.slr jamoalariga jo'r bo'lish ijro mahoratini hamda maqom asarlarini, xalq musiqa ijodiyoiini, bastakodarning milliy musiqa ijrochiligi yo'lida bastaiagan musiqiy asarlarini cholg'u va ashula yo'li ijrolariga xos asarlari ijrolarini ayniqsa jo'rnavozlik mahoratini mukaramal o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Jo'rnavozlik ijro yo'lida buyuk ustozlar- Faxriddin Sodiqovning changda, Muliammadjon va Shavkat Mirzayevlaming rubobda, Turg4m Alimatovning tanbur va satoda , Abduhoshim Ismoilov, O'lmasjon Rasulov, Ahmadjon Dadayevlaming g'ijjak musiqa cholg'ulari jo'rlligidagi jo'rnavozlik ijrolari misol bo'la oladi.

Musiqa cholg'ularidan- Ud, Qashqar rubobi, Afg'on ruboblarini ijrolarida musiqiy ovoz hosil qilinishi uchun maxsus zaxma, muzrob tayyorlanadi. O'ng qo'lning bosh va ko'rsatgich barmoqlari bilan ushlab, musiqa cholg'ularini ichakdan yoki mis va kumushdan tayyorlangan torlariga uritadi va chap qo'lning pardalar ustidagi yengil mohirona harakati luiayli barmoqlar vositasida turli xil musiqa sadolari hosil qilinadi. Tanburda qadimiy an'analarga ko'ra buyuk ustoz mutrib-sozandalar tomonidan o'ng qo'lning ko'rsatgich barmoqlaridagi tabiiy tirnoqlarini o'stirib tanburning misdan tayyorlangan torlariga urib, chap qo'lning harakati vositasida musiqa sadolari hosil qilingan. Masalan: buyuk tanbur cholg'uvchi sozandalardan Ota Jalol, Ota Giyos va boshqalar o'zlarining tabiiy tirnoqlari vositasida musiqa ijro elganlar, bu an'ana hozirgi kunda Eron setornavozlaruda saqlanib qolgan.Bizda esa hozirgi kunda temirdan tirnoq yasab uni fors tilidagi atamada "Noxun" deb atab, o'ng qo'lning ko'rsatgich barmog'iga kiygizilgan hoida tanbur torlariga urib musiqa sadolari hosil qilinadi.

Chang-musiqa cholg'usini ijrosi uchun bambukdan ingichka cho'b tayyorlanadi. Ularning miqdori ikkita bo'lib, uning boshlang'ich qismiga qizil aylana rezindan qirqib kiygiziladi va bar ikkala qo'lning bosh va ko'rsatgich barmoqlari bilan ushlab, birgalikda harakat qilib changning torlariga ushbu tayyorlangan cho'bchalar vositasida urib musiqa sadosi hosil qilinadi.

Qonun-musiqa cholg'usining torlari oq ichakdan tayyorlangan bo'lib, torlar qonun yuzini ikki tomoniga maxsus tayyorlangan quloqchalarga berkitilgan bo'lib, kichik-kichik misdan tayyorlanib o'rnatilgan tilsimon narsalar orqali ijro jarayonida shu tilchalar orqali qonunning torlari yarim ton past va baland ovozli tovush hosil qilinadi. Qonunni ijrosi uchun o'ng va chap qo'lning ko'rsatgich barmog'iga misdan aylana shakldagi yasama tayyorlab kiygiziladi va molning shoxidan maxsus zaxma tayyorlanib haligi aylanani barmoqni old tomonidagi joyiga

qadab qo'yiladi, ya'ni go'yo barmoq- tirnog'ining davomi hisoblanadi. Shu asnoda musiqa sadolari hosil qilinadi.

Nay, Surnay, Karnay, Bularnonlar asosan insonning nafasi vositasida ijro etiladi. Nay cholg'uchi sozanda nafas olish va uni ishlatish borasida mashaqqatli mashq olib boriladi. Hallo¹ mutrib-sozandachi nafasini kuchliligidan ijro jarayonida nay yorilib ketgan hollar ham uchraydi.

Surnay - musiqa cholg'usini ijrosida nafas olish va undan foydalanish ikki xil uslubda bo'ladi. (Biri tuzugi, ikkinchisi buzugi). Ya'ni musiqiy asar ijrosi jarayonida nafas lez-tez olinadi. Ikkinchi turdagi ijroda esa nafas qaytarish ya'ni bir nafas olib kuyning boshlanishidan to oxirigacha nafas qaytarib uzluksiz ijro etish. Mutrib-sozanda uzluksiz nafas qaytarish uslubdagi ijro uchun bir stakanga suv olib, ikki qarichli ichi kovak rezinka bilan stakan suviga nafas orqaii putlaydi va qo'ng'iroq pufakchalar hosil bo'ladi. Nafas qaytarib suvda pufakchalar qachonki uzluksiz hosil qilinsa shundan keyingina surnayni nafas qaytarib ijro etish uslubiga o'tiladi.

Karnay - cholg'usida ijro jarayonida nafas surnay va nag'ora yoki doyraning ijro zarbiga qarab ishlatiladi. Sekin, o'rtacha, tez va hokazo.

G'ijjak - ijrosi to'rtta torda bir-biriga o'tish vositasida, maxsus oq otning dumidagi qildan tayyorlangan "komon" vositasida musiqa sadosi hosil qilinadi. "Komon" maxsus aylana shakliga keltirilib tayyorlangan, quritilgan shirishga ishqalanadi va komon torlarga tegizilib tortilganda mayin, yoqimli sado hosil bo'ladi.

Dutor - ijrosida asosan o'ng qo'lning panjalari asosiy bo'lib, ipakdan yoki ichakdan tayyorlangan torlarga uriladi. Ba'zan ayniqsa "Qo'shtor" nomli musiqiy asarni ijrosini birinchi qismida o'ng qo'lsiz va chap qo'lning pardalar uzra harakati tufayli ijro hosil qilinib. ikkinchi qismida esa o'ng qo'lning panjasidan foydalaniladi.

Doyra - ijrosida ikki qo'lning panjalari barobar harakat qiladi. Doyranavoz bir meyorda doyra zarblarini ijrosi ustida tinimsiz mashq olib borishi shart. Doyra musiqa ijrosi jarayonida bir meyordagi doyra zarblariga mo'ljallangan mezon hisoblanadi. Doyraning gardishi va unga qoplanadigan teri esa yaxshilab oshlanadi. Shunday qilib doyralar har xil sado beradi. Yo'g'on, ingichka va hokazo. Gardishdagi aylanada po'loldan yasalgan aylana halqachalar tayyorlanib o'rnatiladi.

Ansambl - bu atama milliy musiqa cholg'ularmi gunrh-guro'h bo'lib birgalikdagi ijrolari tushuniladi. Masalan; puflama, urma torli, mizrobli, chertma torli, urma zarbli, komonli musiqa cholg'ularining ansambllari. Undan tashqari hozirgi kunda O'zbekistonda ansambl jamoalarida ko'proq o'ndan ortiq musiqa cholg'ularmi birgalikdagi ijrolari tushuniladi. Har bir musiqa dargohlarida turlicha ansambllar faoliyat ko'rsatadi. Masalan -• Toshkentdagi Yunus Rajabiy

nomidagi sozanda va xonandalar guro'hidan tashkil topgan "Maqom ansambli". Maqom ansamblida akademik Yunus Rajabiy badiiy rahbar, O'zbekiston xalq artisti Faxriddin Sodiqov musiqa rahbari, shuningdek sozandalardan - Dodaxo'ja Sottixo'jayev doirada, Zokirjon Sodiqov, Ilhom To'rayev, G'ulomjon G'ofurovlar g'ijjakda, Turg'un Alimatov, Erkin Yo'ldoshev, Sayidazim Quدراتullayevlar tanburda, Is'hoq Qodirovlar nayda, Orif Qosimov dutorda. Umarjon Otayev rubobda, hofiz xonandalardan - Karim Mo'minov, Shokirjon Ergashev, Klara Jalilova, Berta Dovudova, Orif Alimaxsumov, Orif Zirkiyev va boshqalar faoliyat ko'rsatishgan. Hozirgi kunda bu ansamblga O'zbekiston xalq artisti Abduhoshim Ismoilov raxbarlik qiladi. O'zbekiston Davlat konservatoriyasidagi An'anaviy ijrochilik bo'lirnidagi ansambl jamoasi, professor Ahmad Odilov rahbarligidagi "Changchi qizlar" ansamblu professor Murod Toshmuhamedov rahbarligidagi "Komonli cholgular" ansambli, G'anijon Toshmatov nomidagi "Dutorchi qizlar" ansambli va Qarshi Davlat Universitetidagi "Bayot" nomli milliy ansambl shular jumlasidandir.

Orkestr - jamoasi ko'p ovoqli musiqiy asarlarni ijrosiga mo'ljallangan musiqa cholg'ularidan iboratdir. Turli xil ijrochilar guro'hidan tashkil topgan jamoadir. Hozirgi kunda O'zbekistonda Doni Zokirov va To'xtasin Jalilov nomidagi "Xalq cholg'ulari" orkestrlari bo'lib, bu jamoalar dirijyorlar rahbarligida faoliyat ko'rsatadi.

Akustika - Musiqiy tovushlarni joylashgan o'rni, musiqa eholg'ularida pardalarning joylashuvi akustika vositasida muayyan qilinadi. Musiqa tili bilan sent deb ataladi. Yarim ton 100 sent, bir ton 200 sent, bir oktava oralig'i 1200 sent hisoblanadi. Moskvadagi P.I. Chaykovskiy nomidagi Konservatoriyada "Akustika" laboratoriyasi bo'lib, milliy musiqa cholg'ularidagi pardalarni joylashuvi maxsus dastgohlar vositasida muayyan qilinadi. 3990 yilda Moskva konservatoriyasiga borib, akustika laboratoriyaning boshligi M.S.N.Chebancov va A.B. Andrianovlar bilan birgalikda uchta dastgoh, ya'ni "KOON" deb ataluvchi moslama asosida ustoz sozandalardan - Turg'un Alimatov, Fazliddin Shahobov, Shohnazar Sohibov, Neriyo Aminov, Ma'rutjon Toshpo'latovlarning Usto Usmon va Usto Tohirilar tomonidan tayyorlangan tanburlarini, Turg'un Alimatovning "sato" musiqa cholg'usini. Badaxshon sozandasi Muhammad Ato Tavolloyevning setoridagi: pardalar joylashuvlari sent tuzilmalari asosida muayyan qilindi.



O‘zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi Doni Zokirov nomli milliy orkestr jamoasi.

1-qator. chapdan. Orifxon Hotamov, Mahmud Yunusov, Bozorboy Safarov, Ubaydullo Abdullayev, Doni Zokirov, Xayri Izomov, Abdusalom Mutalov, Grigaryans, Abdumutal Abdullayev, Sunnat Samadov.

2-qator. Anormat, Abdumalik, Asror, Ma‘ruf, Azim Yunusov, Zamira Miralimova, Fazilat Shukurova, Ozoda Bahriyeva, Jalol Zuhuriddinov, Xoldor aka, Sodiqjon, Halimjon Jo‘rayev, Mirzasharif Mirbarotov.

3-qator. Qodir aka, Olimjon, Najim, Mahmudjon, Ilyos Lutfullayev, Muhammadjon, Murodbek, Qayumjom, Xolmurod, Murodullo Abdukarimov, Qahramon, G‘ofurjon.


4-qator. Vohid aka, Mirsodiq, Tohirjon, Rustam aka, Rahimjon, Dilshod.
Toshkent shahri 1980 yil.





O‘zbekiston radiosi va televideniyesi qoshidagi «Xalq cholg‘ulari» orkestri. Dirijyor O‘zbekiston Xalq artisti Doni Zokirov.

MUSIQA CHOLG'ULARINING SOZLANISHLARI VA TOVUSHQATORLARI.

PUFLAMA MUSIQA CHOLGULARI.

Nay.  Musical notation for the Nay instrument, showing a scale with a bracketed section of 8 notes.

Surnay.  Musical notation for the Surnay instrument, showing a scale with sharps.

Qo`shnay.  Musical notation for the Qo`shnay instrument, showing a scale with sharps and a flat.

URMA TORLI MUSIQA CHOLG'ULARI.

Chang.  Musical notation for the Chang instrument, showing a scale with sharps and a flat.

Qonun.  Musical notation for the Qonun instrument, showing a scale with sharps and a flat.

XULOSA

Milliy musiqa cholgʻulari, xalq ustolari, cholgʻu ijrochiligi haqida qisqacha fikr yuritildi. Cholgʻushunoslik deganda biz milliy musiqa cholgʻulariga tegishli amaliy va nazariy musiqiy bilimlar majmuasini tushunamiz.

Bu tushunchalar musiqa dunyosida faoliyat koʻrsatayotgan koʻpgina olimlar tomonidan kichik-kichik ilmiy maqolalar, maxsus ilmiy risolalar, kitoblar va boshqa izlanishlar vositasida yoritib berilishga harakat qilmoqdalar. Maʼlumki ilm fanning barcha sohalaridagi koʻpgina atamalar arab va fors tillarida. Jumladan musiqa dunyosidagi koʻpgina atamalar. Shu bois ilmufan sohasida manbashunos, oʻlkashunos, navoiyshunos, folklorshunos, tilshunos shu bilan birga musiqa ijrochiligida musiqashunos, cholgʻushunoslik atamalari ham qoʻllanilmoqda. Cholgʻushunoslik atamasi yaʼni musiqa cholgʻushunosligi maʼnosini anglatadi. Yuqoridagi atamalarga «shunos» yoki «shinos» soʻzlari fors tilida shu sohalarga tegishli maʼlumotlarni yuqori darajada oʻzlashtirgan yoki shu sohaga tegishli maʼlumotlar bilan mukammal ravishda tanishib chiqish maʼnolarini anglatadi. Shu bois har bir soha mutaxassislari, shu sohaga tegishli maʼlumotlar bilan chuqur tanishish maqsadida uzoq yillar davomida amaliy va nazariy izlanishlar olib boradilar.

Oʻzbekistonda cholgʻushunoslik masalalarida dastlab Avgust Eyxgorn, 1920 yillarda V.A.Belyayev, Abdurauf Fitrat, 1937 yillarda Xalq ustasi Usto Usmon Zufarov tomonidan musiqa cholgʻularini yangi namunalari tayyorlangan. 1960 yillarda A.I.Petrosyans, T.S.Vizgo keyingi yillarda Sanʼatshunoslik fanlari doktori, professor Fayzulloh Karomatli (Oʻzbekiston), Nizom Nurjonov (Tojikiston) bilan hamkorlikda cholgʻushunoslik xususida koʻpgina maʼlumotlar toʻplanib, nashr ettirilgan.

Cholgʻushunoslik masalasida fikr yuritilganda Oʻzbekiston hududida mavjud har bir musiqa cholgʻusini yaratilish tarixi, tayyorlash jarayonlari, undagi mavjud boʻlinmalarining atamalari, jarangdor yoqimli, xushsado musiqa cholgʻularni tayyorlash qoidalari, musiqaning cholgʻu ijrochiligi sohasida faoliyat koʻrsatgan buyuk mutrib sozandalarni ijodi va ijrochilik maktablari, ularning ijro jarayonida qoʻllagan milliy musiqiy ijro bezaklari, oʻzbek milliy musiqa cholgʻularini Oʻzbekiston, Oʻrta Osiyo, Umumjahon musiqa ijrochiligidagi oʻrni va boshqa milliy musiqa cholgʻulari umuman cholgʻu ijrochiligiga oid maʼlumotlari muntazam ravishda ilmiy asosda yoritib berilishi bu maʼlumotlardan nafaqat musiqa dunyosida faoliyat koʻrsatayotgan taʼlim oluvchi va taʼlim beruvchi mutaxassislar balki barcha Oʻzbekistonda yashab ijod etayotgan fuqarolar xabardor boʻlishlari maqsadga muvofiqdir.

Albatta O‘zbekistonda hozirgi kunda musiqa ilmini rivojiga jumladan «Cholg‘ushunoslik» masalalariga ham e’tibor berilib, barcha Boshlang‘ich, O‘rta va Oliy musiqa dargohlarida musiqa cholg‘ulari hamda cholg‘ushunoslik masalalari o‘rganilmoqda.

Umuman cholg‘ushunoslik masalalari hali juda ko‘p ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilishini taqozo etadi. Bu bajarilgan ish cholg‘ushunoslik borasida bajarilgan kichik bir ilmiy izlanish sifatida musiqa dunyosida faoliyat ko‘rsatayotgan hamkasblarimiz e’tiboriga havola etiladi.

Xulosa va taklif mulohazalar

Biz o‘z tadqiqot ishimizda maktabda musiqa madaniyati darslarida damli musiqa cholg‘ulari, ular ijrosidagi musiqiy asarlar, ular jo‘rligida qo‘shiq ijro etishni o‘rganishning mohiyati va darslarda o‘rganilishini aniq reja asosida yoritib berishga harakat qildik va quyidagi xulosalarga keldik.

1.Maktabda damli musiqa cholg‘ulariga tegishli ma’lumotlarni, ular ijrolarini o‘rganishni tizimli ravishda amalga oshirishimiz, o‘quvchilarning mazkur musiqa cholg‘ulari ijro yo‘llarini puxta o‘zlashtirib olishlariga ijobiy natijalar beradi.

2.Yangi dasturda musiqa ta’limining mazmuni ya’ni musiqa o‘qituvchisidan musiqa cholg‘ulari haqidagi ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirgan bo‘lishlari kerakligi talab qilinadi. Shu bois tadqiqot ishimizda bu cholg‘u sozlarini o‘rganish har bir sinfda emas, balki yuqori sinflarda ko‘proq qo‘llanilishini tavsiya etdik.

3.Maktabda musiqa darslarida damli cholg‘u sozlarini o‘rganish DTS va yangi o‘quv dasturidan kelib chiqib musiqiy ta’lim bir reja asosida olib borilsa, yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo‘lib yetishishlarida, milliy musiqa ijrochiligining asosi hisoblangan musiqa cholg‘ularini mohiyatini chuqur his eta oladigan, umumbashariy inson darajasiga yetishishlariga o‘ziga xos zamin yaratadi.

4.Milliy musiqa merosimizdan to‘laqonli foydalanish – cholg‘u ijrochiligi mohiyatini chuqur anglab yetish yangi avlod tarbiyasiga, ularni barkamol bo‘lib ya’ni musiqa ilmini ham amaliy, ham nazariy tomondan xabardor bo‘lishlariga katta yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurauf Fitrat. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Qayta nashri. Nashrga tayyorlovchi Karimbek Hasan. Toshkent; 1993.
2. Is'hoq Rajabov. Maqomlar masalasiga doir. Toshkent 1963.
3. Shashmaqom 1 jild. Notaga oluvchi Yunus Rajabiy. Toshkent 1966.
4. Nafas Shodmonov. Xo'ja Abdulqodir Marogiy. Toshkent 2000.
5. Rasulov J.K. O'zbek dutor ijrochiligi. Toshkent. 1997.
6. Nafas Shodmonov. Temuriylar davrida musiqashunoslik. Toshkent. 1995.
7. Mulla Begjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Qayta nashrga tayyorlovchi San'atshunoslik fanlari nomzodi Botir Matyoqubov. Toshkent. Yozuvchi. 1998.
8. Muhammadiyeva Gulchehra. Kuyla dilkash dutorim. Toshkent. 1998.
9. Ahmad Odilov, Anvar Lutfullayev. Chang. Toshkent. 2002.
10. Rifatullo Qosimov. Ud. Toshkent. 2002.
11. Nazarov Abdumannon. Farobiy va Ibn Sino musiqiy ritmika xususida. Toshkent. 1995.
12. Murodullo Abdukarimov. Tanbur navolari. Nasaf. 2000.
13. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati. IV. O'zbekiston fanlari akademiyasi. Toshkent. 1985.
14. K. Olimboyeva, M. Ahmedov. O'zbekiston Xalq sozandalari. Toshkent-Yangiyo'l. 1959.
15. M.Toirov. Nay darsligi. Toshkent.:1963.
- 16.R.Qosimov. Rubob navolari. T.:1993y.
- 17.C.Azizboyev. G'ijjak navolari. T.:1999y.

TONG OTGUNCHA

O'zbek xalq kuyi

The image displays a musical score for the Uzbek folk tune "Tong Otguncha". The score is written on ten staves in G major (one sharp) and 2/4 time. It begins with a piano introduction marked "p". The melody is characterized by flowing eighth and sixteenth notes, often grouped with slurs. The score includes dynamic markings such as "p" and "mf". A section of the score is marked "тезроқ" (faster), indicating a change in tempo. The piece concludes with a final cadence.

QURBON QAYTARMA

O'zbek xalq kuyi

Handwritten musical score for "QURBON QAYTARMA" in G major, 3/4 time. The score consists of ten staves of music. The first staff begins with a treble clef, a key signature of one sharp (F#), and a 3/4 time signature. The first measure is a repeat sign. The music features various melodic lines with slurs, accents, and dynamic markings such as "mf" and "f". The notation includes eighth and sixteenth notes, often beamed together, and rests. The piece concludes with a final cadence on the tenth staff.

FIG'ON I



A page of handwritten musical notation consisting of ten staves. The notation is written in a single system on a five-line staff. The music features a variety of rhythmic values, including eighth and sixteenth notes, often grouped with beams. Many notes are connected by long, sweeping slurs, indicating a continuous melodic line. There are several dynamic markings: *mf* (mezzo-forte) appears on the third staff, and *f* (forte) appears on the ninth staff. The notation includes various articulation marks, such as accents and slurs, and some notes have small 'v' marks above them, possibly indicating vibrato or a specific performance technique. The handwriting is clear and consistent throughout the page.

A page of handwritten musical notation consisting of 12 staves. The notation is written in black ink on aged, yellowish paper. Each staff begins with a treble clef. The music features a variety of rhythmic patterns, including eighth and sixteenth notes, often grouped with slurs. Dynamic markings such as *v* (accent), *f* (forte), and *mf* (mezzo-forte) are placed throughout the score. The handwriting is clear and consistent, typical of a composer's manuscript.

A page of handwritten musical notation consisting of 12 staves. The notation is written in a single system on a five-line staff. The music features a variety of rhythmic values, including eighth and sixteenth notes, and rests. Many notes are beamed together, and there are several long, sweeping slurs that span across multiple measures. The handwriting is clear and consistent throughout the page.

A handwritten musical score consisting of ten staves. The notation is in a single system, likely for a single melodic line. The key signature is one sharp (F#), and the time signature is 3/4. The music features a variety of rhythmic values, including eighth and sixteenth notes, often grouped with beams. Slurs are used extensively to indicate phrasing across multiple notes. Accents (v) are placed above several notes. The score begins with a treble clef and a key signature of one sharp. The notation is dense and expressive, typical of a composer's manuscript.

A page of handwritten musical notation consisting of 12 staves. The notation is written in black ink on aged, yellowish paper. Each staff begins with a treble clef. The music features a variety of note values, including quarter, eighth, and sixteenth notes, often grouped together with slurs. There are several dynamic markings: 'f' (forte) appears on the second, third, and fourth staves, and 'p' (piano) appears on the sixth staff. The overall style is characteristic of 18th or 19th-century manuscript notation.

A handwritten musical score consisting of 12 staves of music. The notation is written in black ink on aged, yellowish paper. Each staff begins with a treble clef and a key signature of one sharp (F#). The music is characterized by frequent use of slurs and ties, indicating long, flowing melodic lines. The notes are primarily eighth and sixteenth notes, often grouped together. There are several dynamic markings, including a 'p' (piano) in the second staff and an 'f' (forte) in the sixth staff. The overall style is that of a classical or romantic-era manuscript.



